



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**

OLIV TA'LIMDAN KEYINGI TA'LIM DASTURLARINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITASIYASIDAN

O'TKAZISHGA TAYYORGARLIK KO'RISH BO'YICHA

QO'LLANMA



www.nqaae.uz

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

**Oliy ta'limdan keyingi ta'lim dasturlarini
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha
QO'LLANMA**

Toshkent-2026

Mazkur qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat yuritayotgan davlat va nodavlat oliy ta'limdan keyingi ta'limni amalga oshiruvchi oliy ta'lim va ilmiy tashkilotlarda, ularning idoraviy mansubligi hamda tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar, ta'lim dasturlarini maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish jarayonida ichki (o'zini o'zi) baholashni samarali tashkil etishga doir uslubiy tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Qo'llanma oliy ta'limdan keyingi ta'limni amalga oshiruvchi oliy ta'lim va ilmiy tashkilotlarda joriy etilayotgan va amaldagi oliy ta'limdan keyingi ta'lim dasturlarining davlat ta'lim talablari hamda akkreditatsiya mezonlariga muvofiqligini baholash, shuningdek, ularni takomillashtirish va xalqaro standartlarga moslashtirishga doir nazariy hamda amaliy tavsiyalarni qamrab oladi.

Qo'llanmada oliy ta'limdan keyingi ta'lim dasturlarini maxsus davlat akkreditatsiyasi baholash yo'nalishlari, mezonlari va indikatorlari kesimida tahlil qilish, zarur ma'lumotlarni shakllantirish hamda baholash natijalarini asoslovchi dalil va hujjatlarni aniqlash tartibi bayon etilgan.

Mazkur qo'llanma oliy ta'limdan keyingi ta'limni amalga oshiruvchi oliy ta'lim va ilmiy tashkilotlar rahbarlari, ta'lim sifatini ta'minlash bo'linmalari mas'ullari hamda ilmiy rahbar(konsultant)lar uchun ta'lim dasturlarini maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishga tayyorlashda amaliy-uslubiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur qo'llanma tavsiyaviy xarakterga ega bo'lib, oliy ta'limdan keyingi ta'limni amalga oshiruvchi oliy ta'lim va ilmiy tashkilotlarning taklif va mulohazalari asosida muntazam takomillashtirib boriladi.

MUNDARIJA

Qo'llanilgan qisqartma so'zlar	4
KIRISH.....	5
ASOSIY TUSHUNCHA VA ATAMALAR	7
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASI UCHUN ARIZANI RASMIYLASHTIRISH.....	8
ICHKI BAHOLASH HISOBOTINI SHAKLLANTIRISH	9
BAHOLASH YO'NALISHI, MEZON VA INDIKATORLAR BO'YICHA NATIJALARNI HISOBLASH	11
ICHKI BAHOLASH HISOBOTINI KO'RIB CHIQISH.....	12
TA'LIM DASTURINI BAHOLASH YO'NALISHLARI, MEZONLARI VA INDIKATORLARI	14
I. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi.....	14
II. Ta'lim dasturlari yo'nalishi.....	27
III. Tadqiqot jarayonini tashkil etish va tadqiqot natijalarini baholash yo'nalishi	42
IV. Izlanuvchilar faoliyati yo'nalishi.....	51
V. Inson resurslari yo'nalishi	60
VI. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi	67
ICHKI BAHOLASH NATIJALARI BO'YICHA XULOSA	76
ILOVA: TA'LIM DASTURI BO'YICHA ICHKI BAHOLASH HISOBOTI SHAKLI	77
1-jadval.....	82
2-jadval.....	83
3-jadval.....	84
4-jadval.....	85
5-jadval.....	86
6-jadval.....	87
7-jadval.....	88
TA'LIM DASTURINI TAKOMILLASHTIRISH BO'YICHA CHORA-TADBIRLAR REJASI.....	89
QAYDLAR UCHUN	90

Qo'llanilgan qisqartma so'zlar

Qisqartmalar	Mazmuni
ARM	Axborot-resurs markazi
AKT	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari
DTT	Davlat ta'lim talablari
LMS	Ta'limni boshqarish tizimi

KIRISH

Ushbu qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim sifatini ta'minlash va ta'lim xizmatlari ko'rsatish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2025-yil 5-maydagi PF-76-son Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori bilan tasdiqlangan nizomda belgilangan vazifalardan kelib chiqib ishlab chiqilgan.

Qo'llanmada ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlarini maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish jarayonida ichki (o'zini o'zi) baholashni samarali tashkil etishga doir uslubiy tavsiyalar bayon etilgan.

Shuningdek, qo'llanmada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi direktorining 2025-yil 22-dekabrda "Oliy ta'limdan keyingi ta'limni amalga oshiruvchi oliy ta'lim va ilmiy tashkilotlarni kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishda baholash mezonlari bo'yicha indikatorlarni tasdiqlash haqida"gi 6-son buyrug'i (ro'yxat raqami: 3748) bilan tasdiqlangan indikatorlar bo'yicha tegishli ma'lumotlarni taqdim etishga doir uslubiy tavsiyalar keltirilgan.

Qo'llanma ta'lim dasturlarini maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish jarayonini yagona talablar asosida tashkil etish, baholash yo'nalishlari, mezonlari va zarur hujjatlarni aniq belgilash hamda ta'lim tashkilotlariga ichki (o'zini o'zi) baholash hisobotini to'g'ri shakllantirish, asoslantiruvchi hujjatlarni yig'ish va tashqi baholash jarayoniga samarali tayyorgarlik ko'rishga metodik yordam beradi.

Ichki baholash hisobotini tayyorlash bo'yicha yagona yondashuvlarga rioya qilinishi ta'lim tashkiloti va tashqi baholash uchun ekspert komissiyalarining ish samaradorligini oshiradi hamda osonlashtiradi.

Ichki baholash jarayonining o'tkazilishidan maqsad ta'lim dasturlarini har tomonlama va chuqur tahlil qilishdan iborat bo'lib, kelgusida uning samaradorligini oshirish uchun foydalaniladi. Ichki baholash jarayonida ta'lim dasturini tahliliy va tanqidiy baholash amalga oshiriladi.

Ichki baholash hisoboti tegishli baholash yo'nalishlari va mezonlariga muvofiq ma'lumotlarni tahlil qilishga bag'ishlangan qismlar va boblardan iborat tahliliy ma'lumotnoma shaklida tayyorlanadi.

Ta'lim dasturining ichki baholash hisobotidan ekspert komissiyalari tashqi baholash jarayonida to'liq ma'lumot olish va sifatni baholash uchun foydalanadi.

Ichki baholash hisobotini tayyorlash maqsadida ta'lim tashkiloti tomonidan ma'muriyat, ilmiy rahbar(konsultant)lar, kamida bitta izlanuvchi vakili, shuningdek, ish beruvchilar va (yoki) ijtimoiy hamkorlar vakillaridan iborat ishchi guruh tuzilib, baholash amalga oshirilishi mumkin.

Ichki baholash hisobotini tayyorlashda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

- hisobotni mazkur qo'llanmada belgilangan ketma-ketlikda shakllantirish;
- taqdim etilayotgan har bir hujjat va ma'lumotni aniq, tushunarli hamda dalillar bilan asoslash;
- davlat tili qoidalari va talablariga amal qilish;
- rasmiy muomalada keng qo'llaniladigan so'z va atamalardan foydalanish;
- istiqbolli rejalar, loyihalar va kutilayotgan natijalarni aniq ko'rsatish;
- har bir baholash mezoni va indikatorlari bo'yicha qisqa, aniq hamda dalillarga asoslangan tahliliy ma'lumotlarni kiritish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi (keyingi o'rinlarda – Agentlik) davlat akkreditatsiyasini o'tkazish bo'yicha maxsus vakolatli organ hisoblanadi.

ASOSIY TUSHUNCHA VA ATAMALAR

Ta'lim dasturlarini maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish bilan bog'liq hujjatlarni shakllantirishda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (23.09.2020, O'RQ-637-son), qonunosti hujjatlari hamda tegishli normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan asosiy tushuncha va atamalardan foydalanilishi shart.

Shuningdek, maxsus davlat akkreditatsiyasining ichki baholash hisobotini shakllantirish Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori bilan tasdiqlangan nizom hamda mazkur qo'llanmada qo'llanilgan asosiy tushuncha va atamalar asosida amalga oshiriladi.

Quyidagi tushuncha va atamalar davlat akkreditatsiyasi jarayonlarida keng foydalaniladi:

davlat akkreditatsiyasi – ta'lim tashkiloti faoliyati davlat ta'lim talablari va ta'lim dasturlariga muvofiqligini aniqlashga qaratilgan kompleks yoki maxsus akkreditatsiyani o'z ichiga oluvchi jarayon;

baholash yo'nalishi – davlat akkreditatsiya doirasida sifat va samaradorlikni baholash uchun belgilangan asosiy yo'nalishlar majmui bo'lib, boshqaruv, tadqiqot sifati, tadqiqot jarayoni, inson resurslari, izlanuvchilar faoliyati, moddiy-texnik baza kabi yo'nalishlarni qamrab oladi;

mezon – muayyan baholash yo'nalishida sifatga qo'yiladigan minimal talablar va standartlar majmui;

indikator – belgilangan mezon bajarilishini aniq, o'lchab bo'ladigan va asoslantiruvchi dalillar bilan tasdiqlanadigan ko'rsatkich;

ichki baholash hisoboti – ta'lim tashkiloti tomonidan har bir ta'lim dasturini davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishga tayyorgarlik jarayonida tayyorlanadigan hujjat bo'lib, unda ta'lim dasturining baholash yo'nalishlari, mezonlari va indikatorlariga muvofiqligi yuzasidan tahlillar, dalillar hamda xulosalar keltiriladi;

ta'lim tashkiloti – oliy ta'limdan keyingi ta'limni amalga oshiruvchi oliy ta'lim va ilmiy tashkilot;

asoslantiruvchi dalillar – mezon yoki indikatorlarga tegishli hujjatlar, ma'lumotlar, statistika, jarayonlar, qarorlar, foto/video materiallar yoki boshqa aniq asoslar.

MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASI UCHUN ARIZANI RASMIYLASHTIRISH

Maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish to'g'risida arizalar Agentlikning Ta'lim tashkilotlarini davlat akkreditatsiyadan o'tkazish va reytingini yuritish bo'yicha **"accreditation.nqaae.uz"** axborot tizimi orqali elektron shaklda qabul qilinadi.

Ta'lim dasturlarini maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish to'g'risida arizalar kelgusi o'quv yilida faoliyatini boshlash uchun **har yili 1-oktabrdan kelgusi yilning 31-yanvarigacha** qabul qilinadi.

Ushbu muddatlardan tashqari boshqa muddatlarda maxsus davlat akkreditatsiyasi ta'lim tashkilotining murojaatiga asosan, Agentlik bilan tuziladigan shartnoma shartlari va oshirilgan to'lov asosida amalga oshiriladi.

Davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish to'g'risidagi arizani shakllantirish, qo'shimcha hujjatlarni taqdim qilish va ularni ko'rib chiqish Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori bilan tasdiqlangan nizomda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Ta'lim dasturlarini maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishda ta'lim tashkilotining vakili (ariza beruvchi) belgilangan talablar asosida ariza topshirish, yig'implarni belgilangan muddatlarda to'lash, Agentlik va ta'lim tashkiloti o'rtasida shartnomani rasmiylashtirish, ekspert komissiyasining joyiga chiqqan holdagi faoliyati hamda Akkreditatsiya komissiyasi tomonidan qaror qabul qilinishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, shuningdek ma'lumotlarni belgilangan muddatlarda taqdim etish uchun mas'ul hisoblanadi.

ICHKI BAHOLASH HISOBOTINI SHAKLLANTIRISH

Ta'lim tashkiloti tomonidan tayyorlangan ichki baholash hisobotida davlat akkreditatsiyasi mezonlari asosida ta'lim dasturining real holati dalillarga tayangan holda tahlil qilinadi, baholanadi hamda uni takomillashtirish choralari belgilanadi. Unda keltirilgan ma'lumotlardan ekspert komissiyalari tomonidan ta'lim dasturlarini tashqi baholash jarayonlarida foydalaniladi.

Ichki baholash hisoboti ta'lim dasturining davlat ta'lim talablari va akkreditatsiya mezonlariga muvofiqligini baholash, uning kuchli hamda takomillashtirilishi lozim bo'lgan jihatlarini aniqlash, ta'lim sifatini doimiy yaxshilashga qaratilgan xulosa va takliflarni shakllantirish, shuningdek maxsus davlat akkreditatsiyasi uchun ishonchli dalillar bazasini yaratish maqsadida tuziladi.

Akkreditatsiya yo'nalishlari, mezonlari va indikatorlariga qat'iy muvofiqlikni ta'minlash maqsadida hisobot amaldagi maxsus davlat akkreditatsiyasi baholash tuzilmasiga mos bo'lishi shart. Bunda har bir indikator bo'yicha amaldagi holat, dalillar, xulosa hamda takomillashtirish choralari aniq yoritilishi lozim.

E'TIBOR BERING!!!

Ichki baholash hisobotini to'g'ri shakllantirishda mazkur qo'llanmaning "Ta'lim dasturini baholash yo'nalishlari, mezonlari va indikatorlari" bo'yicha tavsiya etilgan savollar hamda asoslantiruvchi dalil(lar)dan foydalangan holda aniq va asoslangan ma'lumotlar kiritilishi lozim.

Shuningdek, kiritilgan ma'lumotlar va ularni tasdiqlovchi hujjatlar elektron shaklda platformaga yuklanishi shart.

Ichki baholash hisobotida asoslantiruvchi dalil(lar) bilan tasdiqlanmagan umumiy ma'lumotlar hisobot sifatida qabul qilinmaydi.

Har bir baholash xulosasining rasmiy hujjatlar, statistik ma'lumotlar, hisobotlar, so'rovnoma natijalari hamda fikr-mulohazalar tahliliga asoslanganligi ta'minlanishi shart.

Hisobotning haqqoniyligi va tanqidiy yondashuvini ta'minlash maqsadida u real holatni aks ettirishi, sun'iy yuqori baholashdan xoli bo'lishi, kamchiliklar ochiq va aniq ko'rsatilishi, ularning sabablari tahlil qilinishi hamda aniq yechimlar taklif etilishi lozim.

Hisobotni milliy va xalqaro standartlar bilan uyg'un holda, davlat ta'lim talablari, milliy malaka ramkasi, akkreditatsiya mezonlari hamda xalqaro yondashuvlar asosida shakllantirish maqsadga muvofiq.

Ta'lim natijalari aniq, o'lchanadigan va tekshiriladigan bo'lishi hamda mehnat bozori ehtiyojlari bilan uzviy bog'liq bo'lishi lozim.

Hisobotda keltirilgan ma'lumotlarning dolzarbligini ta'minlash maqsadida izlanuvchilar, ilmiy rahbar(konsultant)lar, ish beruvchilar hamda boshqa manfaatdor tomonlarning fikr-mulohazalari inobatga olinishi shart.

Hisobot ta'lim tashkiloti rahbari tomonidan tasdiqlanadi, elektron (zarur hollarda qog'oz) shaklda saqlanadi hamda Agentlikka tayyor holatda platforma orqali taqdim etiladi.

**BAHOLASH YO'NALISHI, MEZON VA INDIKATORLAR BO'YICHA NATIJALARNI
HISOBLASH**

Baholash mezonlari majburiy va umumiy indikatorlarga bo'linadi hamda "muvofiq" yoki "muvofiq emas" tarzida baholanadi.

Mezon tarkibidagi mavjud majburiy indikator (majburiy indikatorlardan biri) "muvofiq emas" deb topilsa, umumiy natijadan qat'i nazar, ushbu mezon "muvofiq emas" deb baholanadi.

Tashqi baholash mezonlari majburiy va umumiy mezonlarga bo'linadi hamda har bir mezon "muvofiq", "qisman muvofiq" yoki "muvofiq emas" deb baholanadi.

Tashqi baholash mezonlari majburiy va umumiy indikatorlar bo'yicha quyidagi tartibda aniqlanadi:

70 foiz va undan ortiq indikatorlar "muvofiq" deb baholansa — mezon "muvofiq";

50 foizdan 70 foizgacha indikatorlar "muvofiq" deb baholansa — mezon "qisman muvofiq";

50 foizgacha indikatorlar "muvofiq" deb baholansa — mezon "muvofiq emas" deb baholanadi.

Ekspert komissiyasi tomonidan ta'lim dasturi har bir baholash yo'nalishi bo'yicha baholanadi.

Har bir baholash yo'nalishi "muvofiq" yoki "muvofiq emas" deb e'tirof etiladi. Bunda har bir baholash yo'nalishi quyidagi shartlar bajarilganda "muvofiq" deb baholanadi:

majburiy mezonlarning barchasi "muvofiq" deb baholanganda;

umumiy mezonlarning ko'pi bilan ikkitasi "qisman muvofiq" deb baholanganda;

"muvofiq emas" deb baholangan mezonlar mavjud bo'lmaganda.

Akkreditatsiya komissiyasi tomonidan har bir baholash yo'nalishi "muvofiq" deb e'tirof etilganda, ushbu ta'lim dasturi "davlat akkreditatsiyasidan o'tdi" deb, "muvofiq emas" deb e'tirof etilganda esa "davlat akkreditatsiyasidan o'tmadi" deb qaror qabul qilinadi.

ICHKI BAHOLASH HISOBOTINI KO'RIB CHIQISH

Ta'lim sifatini tashqi baholash uchun Agentlik tomonidan ekspert komissiyalari tashkil etiladi. Ekspert komissiyalari ixtisosliklar xususiyatidan kelib chiqqan holda tuziladi.

Ekspert komissiyalari tarkibi ta'lim tashkilotlarining ilmiy rahbar(konsultant) va rahbar xodimlari, ilmiy-tadqiqot institutlarining yetakchi olimlari, respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining mas'ul xodimlari, tegishli ishlab chiqarish tashkilotlarining mutaxassislari, nodavlat notijorat tashkilotlar vakillari hamda tadqiqotchilar orasidan shakllantiriladi. Ekspert komissiyalari tarkibiga xorijiy ekspertlar jalb etiladi.

Ekspert komissiyalarining vazifalari quyidagilardan iborat:

ichki baholash natijalari bo'yicha olingan ma'lumotlarni ekspertizadan o'tkazish hamda tashqi baholashni amalga oshirish;

ta'lim dasturining davlat ta'lim talablari, akkreditatsiya mezonlari va ta'lim dasturlariga muvofiqligini baholash;

ta'lim sifatini oshirish va ta'lim xizmatlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar berish hamda tashqi baholash natijalari yuzasidan hisobotni tayyorlash va Akkreditatsiya komissiyasiga taqdim etish.

Ichki baholash hisoboti **mazkur qo'llanmaning ilovasida keltirilgan namuna** asosida shakllantiriladi.

Ta'lim tashkiloti ichki baholash natijasida shakllantirilgan hisobot va unga tegishli materiallarni elektron va (yoki) qog'oz shaklida tasdiqlangan holda tashqi baholash boshlanishidan kamida **bir oy oldin** Agentlikka platforma orqali taqdim etadi.

Ekspert komissiyalari ichki baholash hisobotini o'rganadi hamda undan tashqi baholash jarayonida foydalanadi. Ta'lim dasturini maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish ekspert komissiyasi tomonidan joyiga chiqqan holda, **besh ish kunidan oshmagan muddatda** amalga oshiriladi.

Tashqi baholash jarayonida ichki baholash hisobotida haqqoniy bo'lmagan ma'lumotlar aniqlanishi, shuningdek, belgilangan muddatlarda hujjatlarning taqdim qilinmasligi yoki kamchiliklarning bartaraf etilmasligi davlat akkreditatsiyasidan o'tkazmaslik uchun asos bo'ladi.

Dastlabki hisobot tashqi baholash natijalari asosida ekspert komissiyasi tomonidan **o'n besh ish kuni ichida** tayyorlanadi hamda uning xulosasi Agentlik orqali ta'lim tashkilotiga taqdim etiladi.

Ta'lim tashkiloti dastlabki hisobot xulosasi yuzasidan asoslantirilgan taklif va e'tirozlarini **uch ish kuni ichida** Agentlikka rasman taqdim etadi. Mazkur taklif va e'tirozlar asosida ekspert komissiyasi tomonidan **uch ish kuni ichida** yakuniy hisobot tayyorlanadi.

Ekspert komissiyasi tomonidan maxsus davlat akkreditatsiyasida har bir ta'lim dasturi bo'yicha alohida hisobot tayyorlanadi.

Ta'lim tashkiloti tomonidan taqdim qilingan ichki baholash hisoboti asosida ekspert komissiyasi joyiga chiqmasdan, masofaviy shaklda tashqi baholashni amalga oshirishi mumkin.

TA'LIM DASTURINI BAHOLASH YO'NALISHLARI, MEZONLARI VA INDIKATORLARI

Ta'lim dasturlarini maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishning **6 ta baholash yo'nalishi** doirasida **26 ta mezon** hamda ularni tavsiflovchi **134 ta indikator** mavjud.

Maxsus davlat akkreditatsiyasidan yangi tashkil etilgan ta'lim dasturlari, shuningdek, amaldagi ta'lim dasturlari ham o'tkazilganligi sababli, ma'lum indikatorlar faqat amaldagi ta'lim dasturlari uchun tatbiq etiladi.

Mazkur qo'llanmada  belgisi bilan majburiy mezonlar, * belgisi bilan majburiy indikatorlar, ** belgisi bilan esa faqat amaldagi ta'lim dasturlari uchun qo'llaniladigan indikatorlar ajratib ko'rsatilgan.

I. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi

Izoh: Oliy ta'limdan keyingi ta'lim dasturini samarali amalga oshirish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash hamda ta'lim sifatini ichki ta'minlash orqali mehnat bozori ehtiyojlariga mos ravishda doktorantura ta'lim dasturini muntazam takomillashtirishga qaratilgan faoliyat baholanadi.

1. MEZON: Ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi

Izoh: Oliy ta'limdan keyingi ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tegishli tarkibiy bo'linmalar faoliyatining tashkil etilganligi, ularning vazifa va funksiyalari aniq belgilanganligi, faoliyat samaradorligini ta'minlovchi ichki boshqaruv mexanizmlarining yo'lga qo'yilganligi baholanadi

1.1. INDIKATOR

Oliy ta'limdan keyingi ta'lim dasturi (bundan buyon matnda ta'lim dasturi deb yuritiladi)ni amalga oshirishning maqsadga muvofiqligi to'g'risida oliy ta'lim va/yoki ilmiy tashkilot (bundan buyon matnda ta'lim tashkiloti deb yuritiladi)ning muvofiqlashtiruvchi kollegial organining (ilmiy kengash, kengash, ilmiy-texnik kengash, ilmiy-muvofiqlashtiruvchi kengash va boshqalar) (bundan buyon matnda Kollegial organ deb yuritiladi) tegishli qarori mavjud

Yordamchi savollar:

❖ Ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha Kollegial organ tomonidan rasmiy qaror qachon va qaysi hujjat asosida qabul qilingan?

❖ Ushbu qarorda ta'lim dasturining maqsadga muvofiqligi qanday asoslar (mehnat bozori ehtiyoji, ilmiy salohiyat, moddiy-texnik baza va boshqalar) bilan asoslab berilgan?

❖ Qaror belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan va ta'lim tashkilotining tegishli hujjatlar bazasida saqlanadimi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ kollegial organning ta'lim dasturini joriy etish (amalga oshirish) to'g'risidagi qaror bayonnomasi;

✓ qaror ijrosini bajarish bo'yicha rektor/direktor buyrug'i

1.2. INDIKATOR

Ta'lim dasturini amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan tarkibiy tuzilmani (kafedrani, bo'limni) (bundan buyon matnda tarkibiy tuzilma deb yuritiladi) tashkil etish hamda uni moddiy-texnik baza va moliyaviy resurslar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejalar mavjud*

Yordamchi savollar:

❖ Tarkibiy tuzilmani tashkil etish jarayoni qanday rejalashtirilgan va uning vazifalari qanday belgilangan?

❖ Tarkibiy tuzilmani moddiy-texnik baza bilan ta'minlash bo'yicha qanday aniq choralar, bosqichlar va mexanizmlar ishlab chiqilgan?

❖ Tarkibiy tuzilmaga zarur moliyaviy resurslarni ajratish qanday tartibda amalga oshiriladi va bu jarayonni moliyalashtirish rejasi qanday shakllantirilgan?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ Tarkibiy tuzilma(kafedra yoki bo'lim)ni tashkil etish to'g'ridagi buyruq (yoki kollegial organ qaroridan ko'chirma);

✓ Tarkibiy tuzilmani moddiy-texnik baza va moliyaviy resurslar bilan ta'minlash bo'yicha aniq reja;

✓ Tegishli jadvallar.

1.3. INDIKATOR

Tarkibiy tuzilmaning vakolatlari, vazifalari va funksiyalari ta'lim dasturini samarali amalga oshirishga yo'naltirilgan va ta'lim dasturi doirasida belgilangan maqsadlarga uyg'un tarzda aniq belgilangan

Yordamchi savollar:

❖ Tarkibiy tuzilmaning vakolatlari, vazifalari va funksiyalari qanday belgilangan va ular ta'lim dasturining maqsadlari bilan qanday bog'langan?

❖ Tarkibiy tuzilmaning faoliyati ta'lim dasturini samarali amalga oshirishga qanday hissa qo'shadi va bu jarayon qanday mexanizmlar orqali ta'minlanadi?

❖ Tarkibiy tuzilma vakolatlari va vazifalarining ta'lim dasturi maqsadlariga uyg'unligi qanday tartibda muntazam ko'rib chiqiladi va yangilanadi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ tarkibiy tuzilmaning nizom(lar)i.

1.4. INDIKATOR

Ta'lim dasturini samarali amalga oshirish uchun tarkibiy tuzilma moddiy-texnik baza, moliyaviy va inson resurslari bilan ta'minlangan hamda tarkibiy tuzilmaning ish rejalari ishlab chiqilgan**

Yordamchi savollar:

❖ *Tarkibiy tuzilmaning ta'lim dasturini samarali amalga oshirishi uchun qanday moddiy-texnik baza, moliyaviy va inson resurslari ajratilgan va ular yetarliligi qanday baholanadi?*

❖ *Tarkibiy tuzilmaning ish rejalari qanday tartibda ishlab chiqiladi, tasdiqlanadi va ta'lim dasturining maqsadlari bilan qanday bog'lanadi?*

❖ *Resurslarni boshqarish va ulardan samarali foydalanish qanday mexanizmlar orqali ta'minlanadi va bu jarayon qanday monitoring qilinadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ *tarkibiy tuzilmaning ish rejasi;*
- ✓ *Moddiy-texnik, moliyaviy va inson resurslari haqida ma'lumot;*
- ✓ *Tegishli jadvallar.*

1.5. INDIKATOR

Tarkibiy tuzilmaning faoliyati ta'lim tashkiloti hamda ta'lim dasturining maqsadlari va kutilgan o'quv natijalariga uyg'un**

Yordamchi savollar:

❖ *Tarkibiy tuzilmaning faoliyati ta'lim tashkilotining umumiy maqsadlari va ta'lim dasturining kutilgan o'quv natijalari bilan qanday uyg'unlashtirilgan?*

❖ *Tarkibiy tuzilmaning amalga oshirayotgan ish jarayonlari va tashabbuslari o'quv natijalariga erishishga qanday ta'sir ko'rsatadi?*

❖ *Faoliyatning maqsad va o'quv natijalari bilan mosligini muntazam baholash uchun qanday monitoring mexanizmlari yoki ko'rib chiqish jarayonlari mavjud?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ *Kafedra (bo'lim)ning yillik ish rejasi. Bayonnoma va/yoki hisobotlar.*

1.6. INDIKATOR

Tarkibiy tuzilma faoliyati muntazam monitoring va tahlil orqali tizimli ravishda tahlil qilinadi**

Yordamchi savollar:

❖ *Tarkibiy tuzilma faoliyatini monitoring qilish qanday tartibda amalga oshiriladi va monitoring jarayonida qaysi indikatorlar qo'llanadi?*

❖ *Muntazam tahlil uchun ma'lumotlar qanday yig'iladi, qayta ishlanadi va faoliyat samaradorligini baholashda qanday metodlar qo'llanadi?*

❖ *Monitoring va tahlil natijalariga asoslanib, tarkibiy tuzilma faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qanday choralar belgilab boriladi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ichki tahlil materiallari (SWOT-analiz, monitoring xulosalari, Kengash qarorlari).*

1.7. INDIKATOR

Monitoring va tahlil natijalari asosida tarkibiy tuzilmaning faoliyatini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirib boriladi**

Yordamchi savollar:

❖ *Monitoring va tahlil natijalaridan kelib chiqib, tarkibiy tuzilma faoliyatini takomillashtirish uchun qanday chora-tadbirlar belgilab olinadi va ularni tanlash mezonlari qanday?*

❖ *Belgilangan chora-tadbirlar qanday tartibda amalga oshiriladi va ularning bajarilishi uchun mas'ullar hamda muddatlar qanday aniqlanadi?*

❖ *Amalga oshirilgan chora-tadbirlarning samaradorligi qanday baholanadi va zarurat tug'ilganda ularni qayta ko'rib chiqish mexanizmi qanday ishlaydi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Faoliyatni takomillashtirish rejasi va uning ijrosi ta'minlanganligini tasdiqlovchi hujjat(lar).*

2. MEZON: Ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha uch yillik istiqbolli rejaning (bundan buyon matnda istiqbolli reja deb yuritiladi) mavjudligi

Izoh: *Ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan, ta'lim sifati, kadrlar salohiyati, infratuzilma, raqamlashtirish, xalqaro hamkorlik va moliyaviy ta'minot yo'nalishlarini qamrab olgan, maqsad va baholash mezonlari belgilangan, moliyaviy manbalar ko'rsatilgan va ijrosi ichki monitoring orqali nazorat qilinadigan faoliyat baholanadi.*

2.1. INDIKATOR

Istiqbolli reja ishlab chiqilgan hamda ta'lim tashkilotining strategik rejasi (missiyasi, strategiyasi) bilan mos

Yordamchi savollar:

❖ *Istiqbolli reja qanday tartibda ishlab chiqilgan va uning asosiy maqsadlari ta'lim tashkilotining missiyasi hamda strategik rejasi bilan qanday uyg'unlashtirilgan?*

❖ *Istiqbolli rejadagi ustuvor yo'nalishlar va kutilayotgan natijalar strategik rejaning maqsadlarini amalga oshirishga qanday hissa qo'shadi?*

❖ *Istiqbolli rejani strategik hujjatlar bilan mosligini ta'minlash uchun uni ko'rib chiqish, yangilash va monitoring qilish qanday mexanizmlar asosida amalga oshiriladi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ta'lim dasturining 3 yillik istiqbolli rivojlantirish rejasi (tasdiqlangan nusxasi)*

2.2. INDIKATOR

Istiqbolli rejada tadqiqot sifati, kadrlar salohiyati, infratuzilma, raqamlashtirish, xalqaro hamkorlik va moliyaviy barqarorlik yo'nalishlari qamrab olingan

Yordamchi savollar:

❖ *Istiqbolli rejada ta'lim sifati, kadrlar salohiyati, infratuzilma, raqamlashtirish, xalqaro hamkorlik va moliyaviy barqarorlik yo'nalishlari qanday asoslar va tahlillar asosida belgilangan?*

❖ *Har bir yo'nalish bo'yicha rejalashtirilgan maqsadlar va vazifalar ta'lim tashkilotining umumiy rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatadi?*

❖ *Ushbu yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlarning bajarilishi qanday monitoring qilinadi va natijalar asosida istiqbolli reja qay tarzda yangilanib boriladi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Yo'nalishlar bo'yicha maqsadlar, vazifalar va kutilayotgan natijalar aks etgan strukturaviy jadvallar*

2.3. INDIKATOR

Istiqbolli rejani amalga oshirish uchun ta'lim tashkilotida moddiy-texnik baza, moliyaviy va inson resurslari mavjud

Yordamchi savollar:

❖ *Istiqbolli rejani amalga oshirish uchun zarur moddiy-texnik baza, moliyaviy va inson resurslari qanday aniqlangan va ularning yetariligi qanday baholanadi?*

❖ *Ushbu resurslar rejaning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha qanday taqsimlanadi va ulardan samarali foydalanishni ta'minlash mexanizmlari qanday?*

❖ *Resurslarning mavjudligi va ulardan foydalanish jarayonini monitoring qilish qanday tartibda amalga oshiriladi hamda zarurat tug'ilganda resurslarni optimallashtirish bo'yicha qanday choralar ko'riladi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ta'lim dasturi bo'yicha 3 yillik istiqbolli rivojlantirish rejasi (tasdiqlangan nusxasi)*

2.4. INDIKATOR

Istiqbolli rejada belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ta'sir qiluvchi xavf tahlili mavjud hamda ushbu xavflarni bartaraf etish bo'yicha muqobil choralar belgilangan

Yordamchi savollar:

❖ *Istiqbolli reja doirasida vazifalarni amalga oshirishga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan xavflar qanday aniqlangan va ularni baholash uchun qaysi tahlil usullaridan foydalanilgan?*

❖ *Aniqlangan xavflarni kamaytirish yoki bartaraf etish bo'yicha qanday muqobil choralar ishlab chiqilgan va ular qaysi sharoitlarda qo'llanishi belgilangan?*

❖ *Xavflarni monitoring qilish va zarur hollarda muqobil choralarni ishga tushirish mexanizmlari qanday tartibda yo'lga qo'yilgan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Istiqbolli rejada belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ta'sir qiluvchi xavf tahlili mexanizmi va muqobil choralar.*

2.5. INDIKATOR

Istiqbolli rejaning bajarilishi bo'yicha monitoring va tahlil tizimi yo'lga qo'yilgan**

Yordamchi savollar:

❖ *Istiqbolli rejaning bajarilishini monitoring qilish qanday tartibda tashkil etilgan va monitoring jarayonida qaysi indikatorlar qo'llanadi?*

❖ *Reja ijrosiga oid ma'lumotlar qanday yig'iladi, tahlil qilinadi va natijalar asosida qanday qarorlar qabul qilinadi?*

❖ *Monitoring va tahlil natijalari asosida istiqbolli reja qanday tartibda yangilanadi yoki takomillashtiriladi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ichki tahlil materiallari (SWOT-analiz, monitoring xulosalari, Kengash qarorlari) va asoslovchi hujjatlar.*

2.6. INDIKATOR

Monitoring va tahlil natijalari taqozo etgan taqdirda, istiqbolli rejaga tegishli o'zgartirishlar kiritib boriladi**

Yordamchi savollar:

❖ *Monitoring va tahlil natijalari asosida istiqbolli rejaga o'zgartirishlar kiritish jarayoni qanday tartibda amalga oshiriladi va ushbu tartib kim tomonidan tasdiqlanadi?*

❖ *Rejaga kiritilgan o'zgartirishlarning maqsadga muvofiqligi qanday baholanadi va ular ta'lim tashkilotining strategik maqsadlariga qanday ta'sir ko'rsatadi?*

❖ *O'zgartirishlar joriy etilgandan so'ng ularning ijrosi qanday nazorat qilinadi va zarur hollarda qo'shimcha tuzatishlar kiritish mexanizmi qanday ishlaydi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Reja yangilanishi yoki takomillashtirilishi bo'yicha qarorlar (kengash yoki ishchi guruh bayonnomasi).*

3. MEZON: Ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki

Izoh: *Ta'lim dasturida sifatni ta'minlash tizimining mavjudligi va samarali ishlashi, dastur monitoringi va baholash tartib-qoidalarining yo'lga qo'yilganligi hamda manfaatdor tomonlar fikr-mulohazalari asosida oliy ta'limdan keyingi ta'lim dasturi takomillashtirilishi baholanadi.*

3.1. INDIKATOR

Ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash bo'yicha ichki hujjatlar, shu jumladan tartib (qoidalar) ta'lim tashkilotining strategik rejasida (missiyasida, strategiyasida) belgilangan maqsadlar va institutsional sifatni ta'minlash siyosatiga muvofiq ravishda ishlab chiqilgan, tasdiqlangan hamda jamoatchilik uchun ochiq

Yordamchi savollar:

❖ *Sifatni ichki ta'minlash bo'yicha ichki hujjatlar (tartib/qoidalar) qanday tartibda ishlab chiqilgan va ular ta'lim tashkilotining strategik reja, missiya va institutsional sifat siyosati bilan qanday uyg'unlashtirilgan?*

❖ *Ushbu hujjatlar kim tomonidan va qanday jarayon orqali tasdiqlangan hamda tasdiqlashda manfaatdor tomonlarning fikri qanday inobatga olingan?*

❖ *Ichki hujjatlar jamoatchilik uchun qanday shaklda e'lon qilingan va ularni ochiq-oshkora taqdim etish mexanizmlari qanday yo'lga qo'yilgan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ichki sifatni ta'minlash bo'yicha ichki hujjatlar.*

3.2. INDIKATOR

Ta'lim dasturini muntazam monitoring qilish, tahlil qilish va qayta ko'rib chiqish tartibi (qoidalari) mavjud

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim dasturini muntazam monitoring qilish, tahlil qilish va qayta ko'rib chiqish tartibi qanday hujjatlar bilan belgilangan va ushbu tartibning asosiy bosqichlari qanday?*

❖ *Monitoring va tahlil jarayonida qanday ma'lumotlar yig'iladi, kimlar ishtirok etadi va natijalar qanday usullar orqali baholanadi?*

❖ *Tahlil natijalariga ko'ra ta'lim dasturiga o'zgartirishlar kiritish jarayoni qanday amalga oshiriladi va uning samaradorligi qanday nazorat qilinadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ichki sifatni ta'minlash bo'yicha ichki hujjatlar.*

3.3. INDIKATOR

Ta'lim dasturini ishlab chiqish va takomillashtirishda izlanuvchilar, ilmiy rahbar (konsultant)lar, ish beruvchilar, soha mutaxassislari va bitiruvchilarning (bundan buyon matnda manfaatdor tomonlar deb yuritiladi) fikr-mulohazalarini inobatga olish mexanizmi mavjud**

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim dasturini ishlab chiqish va takomillashtirish jarayonida manfaatdor tomonlarning fikr-mulohazalarini yig'ish uchun qanday mexanizmlar (so'rovnomalar, muloqotlar, maslahat kengashlari va boshqalar) yo'lga qo'yilgan?*

❖ *Yig'ilgan fikr-mulohazalar qanday tartibda tahlil qilinadi va ta'lim dasturiga tegishli o'zgartirishlar kiritishda qanday usullar orqali hisobga olinadi?*

❖ *Manfaatdor tomonlarga ularning taklif va fikrlari natijasida amalga oshirilgan o'zgartirishlar haqida qanday tarzda muntazam axborot beriladi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ichki sifatni ta'minlash bo'yicha ichki hujjatlar.*

3.4. INDIKATOR

Manfaatdor tomonlar fikri asosida ta'lim dasturini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilgan**

Yordamchi savollar:

❖ *Manfaatdor tomonlardan olingan fikr-mulohazalar qanday tartibda tahlil qilinadi va ta'lim dasturini takomillashtirish uchun qaysi mezonlar asosida chora-tadbirlar tanlanadi?*

❖ *Belgilangan chora-tadbirlar qanday tartibda amalga oshiriladi, ular uchun mas'ullar va muddatlar qanday belgilanadi?*

❖ *Amalga oshirilgan chora-tadbirlarning ta'lim dasturini takomillashtirishga ta'siri qanday baholanadi va zarurat tug'ilganda qo'shimcha o'zgartirishlar kiritish jarayoni qanday tashkil etiladi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Manfaatdor tomonlar fikri tahliliga asoslangan ta'lim dasturini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi.*

3.5. INDIKATOR

Sifatni ichki ta'minlash tizimi doirasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar samaradorligi muntazam ravishda baholab boriladi**

Yordamchi savollar:

❖ *Sifatni ichki ta'minlash tizimi doirasida amalga oshirilgan chora-tadbirlarning samaradorligini baholash uchun qanday yondashuvlar qo'llanadi?*

❖ *Baholash jarayoni qanday tartibda amalga oshiriladi, unda kimlar ishtirok etadi va ma'lumotlar qanday yig'iladi hamda tahlil qilinadi?*

❖ *Baholash natijalariga ko'ra chora-tadbirlarni takomillashtirish yoki yangilash bo'yicha qanday qarorlar qabul qilinadi va bu jarayon qanday monitoring qilinadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ichki monitoring va baholash hisobotlari.*

4. MEZON: Mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi

Izoh: *Mehnat bozori, ta'lim ehtiyojlari va ilmiy-tadqiqot sohasidagi so'nggi tendensiyalarni muntazam kuzatish, ma'lumotlarni tahlil qilish, natijalarini izlanuvchilarga yetkazish hamda ta'lim dasturini rejalashtirish, amalga oshirish va takomillashtirish jarayonlarida ushbu ma'lumotlardan samarali foydalanish darajasi o'rganiladi.*

4.1. INDIKATOR

Mehnat bozori, ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalariga oid ma'lumotlarni muntazam ravishda to'plash, tahlil va monitoring qilish tartibi mavjud hamda ushbu masalalar yuzasidan tarkibiy tuzilmaning vazifa va funksiyalari aniq belgilangan

Yordamchi savollar:

❖ *Mehnat bozori, ta'lim ehtiyojlari va ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalariga oid ma'lumotlarni yig'ish, tahlil va monitoring qilish tartibi qanday hujjatlar bilan belgilangan va jarayonning asosiy bosqichlari qanday?*

❖ *Mazkur ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilishda tarkibiy tuzilmaning vazifa va funksiyalari qanday aniqlangan hamda ular amalda qanday bajariladi?*

❖ *Yig'ilgan ma'lumotlar asosida ta'lim dasturlarini takomillashtirish, yangilash yoki qarorlar qabul qilish jarayoni qanday amalga oshiriladi va bu jarayonning monitoring mexanizmi qanday?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Mehnat bozori, ta'lim ehtiyojlari va ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalariga oid ma'lumotlarni muntazam ravishda yig'ish, tahlil va monitoring qilish bo'yicha tartib;*

✓ *Mehnat bozori va sohaviy ehtiyojlar bo'yicha o'tkazilgan so'rovnomalar natijalari;*

✓ *Monitoring va tahlil ishlarining amalga oshirilganligini tasdiqlovchi ichki hisobotlar.*

4.2. INDIKATOR

Yig'ilgan ma'lumotlar ta'lim dasturini rejalashtirish va ishlab chiqishda foydalanilgan**

Yordamchi savollar:

❖ *Yig'ilgan ma'lumotlar (mehnat bozori, ta'lim ehtiyojlari, ilmiy-tadqiqot tendensiyalari) ta'lim dasturini rejalashtirish va ishlab chiqish jarayoniga qanday tartibda integratsiya qilingan?*

❖ *Mazkur ma'lumotlar asosida ta'lim dasturining maqsadlari, mazmuni va kompetensiyalarida qanday o'zgarish yoki yangilanishlar amalga oshirilgan?*

❖ *Yig'ilgan ma'lumotlardan foydalanish samaradorligi qanday baholanadi va ular dasturga ta'sir qilganini ko'rsatib beruvchi qanday dalillar mavjud?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Mehnat bozori va ilmiy-tadqiqot tendensiyalari asosida tayyorlangan tahliliy ma'lumot (hisobot).*

4.3. INDIKATOR

Ilmiy-tadqiqot va mehnat bozoridagi so'nggi tendensiyalar tahlil qilinib, ta'lim dasturini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilab boriladi**

Yordamchi savollar:

❖ *Tahlil va monitoring natijalari qanday tartibda ko'rib chiqiladi va ta'lim dasturini takomillashtirishga oid chora-tadbirlar qaysi mezonlar asosida belgilanadi?*

❖ *Belgilangan chora-tadbirlar qanday bosqichlarda amalga oshiriladi va ularning bajarilishi uchun kimlar mas'ul etib belgilangan?*

❖ *Takomillashtirish chora-tadbirlarining samaradorligi qanday monitoring qilinadi va zarur hollarda qo'shimcha o'zgartirishlar kiritish jarayoni qanday tashkil etiladi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ta'lim dasturini takomillashtirish rejasi va uning ijrosi ta'minlanganligi.*

4.4. INDIKATOR

Tahlil va monitoring natijalari va belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirish yakunlaridan kelib chiqib, ta'lim dasturiga zarur o'zgartirishlar kiritiladi**

Yordamchi savollar:

❖ *Tahlil va monitoring natijalari hamda amalga oshirilgan chora-tadbirlar yakunlari qanday tartibda baholanadi va ta'lim dasturiga o'zgartirish kiritish zarurati qanday aniqlanadi?*

❖ *Ta'lim dasturiga kiritiladigan o'zgartirishlar qanday jarayon orqali ishlab chiqiladi, muvofiqlashtiriladi va tasdiqlanadi?*

❖ *Kiritilgan o'zgartirishlarning samaradorligi qanday monitoring qilinadi va zarurat tug'ilganda qo'shimcha takomillashtirishlar kiritish mexanizmi qanday ishlaydi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ta'lim dasturi bo'yicha tahlil materiallari (monitoring xulosalari, Kengash qarorlari) va asoslovchi hujjatlar*

4.5. INDIKATOR

Ta'lim ehtiyojlari va ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalari bo'yicha yig'ilgan ma'lumotlar manfaatdor tomonlar foydalanishi uchun ochiq e'lon qilinadi**

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim ehtiyojlari va ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalariga oid yig'ilgan ma'lumotlar qanday shaklda (hisobotlar, infografika, axborot byulletenlari va boshqalar) tayyorlanadi va e'lon qilish jarayoni qanday tartibga ega?*

❖ *Mazkur ma'lumotlar manfaatdor tomonlar foydalanishi uchun qaysi platformalarda (veb-sayt, portal, axborot stendlari va boshqalar) ochiq taqdim etiladi?*

❖ *E'lon qilingan ma'lumotlardan manfaatdor tomonlar foydalanish samaradorligi qanday baholanadi va zarurat tug'ilganda axborotlarni taqdim etish mexanizmlari qanday takomillashtiriladi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Mehnat bozori va tadqiqot (ta'lim) ehtiyojlari bo'yicha ochiq axborot e'lonlari to'plami (havola/skrinshot).*

5. MEZON: Ta'lim dasturining samaradorligini monitoring qilish va takomillashtirish mexanizmlarining joriy etilgani

Izoh: *Ta'lim dasturi samaradorligi bo'yicha so'rovnomalar o'tkazish, natijalarni tahlil qilish, dasturga tegishli o'zgartirishlar kiritish va izlanuvchilarni amalga oshirilgan chora-tadbirlar bilan xabardor qilish mexanizmi baholanadi.*

5.1. INDIKATOR

Izlanuvchilar va sohaning yetakchi mutaxassislari o'rtasida ta'lim dasturlari bo'yicha so'rovnomalar (intervyular, muhokamalar va izlanuvchilar fikrini o'rganishga qaratilgan boshqa tadbirlar) o'tkazish tartibi belgilangan

Yordamchi savollar:

❖ *Izlanuvchilar va sohaning yetakchi mutaxassislari o'rtasida ta'lim dasturlari bo'yicha so'rovnomalar, intervyular va muhokamalar o'tkazish tartibi qanday hujjatlar bilan belgilangan va jarayonning asosiy bosqichlari qanday?*

❖ *So'rov va muhokamalarda qaysi metodlar qo'llanadi, ma'lumotlar qanday yig'iladi va ularning ishonchliligi qanday ta'minlanadi?*

❖ *Olingan fikrlar qanday tartibda tahlil qilinadi va ta'lim dasturini takomillashtirish bo'yicha qarorlar qabul qilishda qanday qo'llaniladi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *So'rovnoma o'tkazish tartibi va reglamenti.*

5.2. INDIKATOR

So'rovnomalar ta'lim dasturining tashkiliy-boshqaruv, o'quv va ilmiy jarayonlari sifati bilan bog'liq savollarni (masalalarni) qamrab olgan

Yordamchi savollar:

❖ *Savollar ta'lim dasturining tashkiliy-boshqaruv va tadqiqot jarayonlari sifati bo'yicha qaysi mezonlar asosida aniqlanadi?*

❖ *So'rovnoma yordamchi savollarining mazmuni izlanuvchilar tadqiqot jarayoni va boshqaruvga doir real tajribasini aks ettirishi uchun qanday usullar qo'llanadi?*

❖ *Olingan javoblar ta'lim dasturining tashkiliy va tadqiqot jarayonlarini takomillashtirish uchun qanday tartibda tahlil qilinadi va natijalar asosida qanday qarorlar qabul qilinadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *So'rovnoma shakllari va savolnoma namunasi.*

5.3. INDIKATOR

So'rovnoma savollari (masalalari) va o'tkazish jarayonlari ilmiy-metodologik asoslangan**

Yordamchi savollar:

❖ *So'rovnoma yordamchi savollarini shakllantirishda qaysi ilmiy-metodologik yondashuvlar (ta'lim sifatini baholash metodlari, empirik tadqiqot mezonlari va boshqalar) qo'llaniladi va ular qanday asoslangan?*

❖ *So'rovnomani o'tkazish jarayoni (respondentlar tanlovi, anonimlikni ta'minlash, yordamchi savollar ketma-ketligi, o'lchov shkalalari) ilmiy-metodologik jihatdan qanday asoslanadi?*

❖ *Yig'ilgan ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilishda qaysi ilmiy-metodik usullar qo'llanadi va ular natijalarning ishonchliligi va obyektivligini qanday ta'minlaydi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *so'rovnoma metodologiyasi bayon etilgan ilmiy-metodik asos (yo'riqnoma, tushuntirish xati);*

✓ *so'rovnoma vositalari tasdiqlanganligini ko'rsatuvchi kollegial organ bayonnomasi yoki ekspert xulosasi*

5.4. INDIKATOR

So'rovnoma natijalari bo'yicha muammolarni bartaraf etishga doir chora-tadbirlar ishlab chiqilgan**

Yordamchi savollar:

❖ *Aniqlangan muammolar qanday tartibda tahlil qilinadi va ularni bartaraf etish uchun chora-tadbirlar qaysi mezonlar asosida belgilanadi?*

❖ *Belgilangan chora-tadbirlar qanday muddatlarda va kimlar tomonidan amalga oshiriladi hamda ularning bajarilishi qanday monitoring qilinadi?*

❖ *Ko'rilgan chora-tadbirlarning samaradorligi qanday baholanadi va zarurat tug'ilganda qo'shimcha choralar ishlab chiqish jarayoni qanday tashkil etiladi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *So'rovnoma natijalari asosida ishlab chiqilgan chora-tadbirlar rejasi.*

5.5. INDIKATOR

Tahlil natijalari va amalga oshirilgan chora-tadbirlar yakunlaridan kelib chiqib, ta'lim dasturiga zarur o'zgartishlar kiritib boriladi**

Yordamchi savollar:

❖ *Tahlil natijalari va amalga oshirilgan chora-tadbirlar yakunlari qanday tartibda ko'rib chiqiladi va ta'lim dasturiga o'zgartish kiritish zarurati qanday aniqlanadi?*

❖ Ta'lim dasturiga kiritiladigan o'zgartirishlar qanday jarayon orqali ishlab chiqiladi, muvofiqlashtiriladi va tasdiqlanadi?

❖ Kiritilgan o'zgartirishlarning ta'siri qanday monitoring qilinadi va zarurat tug'ilganda qo'shimcha takomillashtirish choralari belgilash mexanizmi qanday ishlaydi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ Ta'lim dasturiga kiritilgan o'zgartirishlar to'g'risidagi ma'lumot va yangilangan ta'lim dasturi.

5.6. INDIKATOR

Izlanuvchilar so'rovnoma natijalari va ular asosida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida xabardor qilinadi**

Yordamchi savollar:

❖ Izlanuvchilar so'rovnoma natijalari haqida qanday shaklda (uchrashuvlar, e'lonlar, elektron pochta, platformalar) xabardor qilinadi va bu jarayonning tartibi qanday belgilangan?

❖ So'rovnoma natijalari asosida amalga oshirilgan chora-tadbirlar izlanuvchilarga qanday tarzda yetkaziladi va ularning ochiqligi qanday ta'minlanadi?

❖ Izlanuvchilarning xabardorlik darajasini oshirish hamda ularning fikr bildirish jarayonini yanada samarali qilish uchun qanday mexanizmlar yo'lga qo'yilgan?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ Izlanuvchilarga so'rovnoma natijalari va ular asosida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida taqdim etilgan ma'lumotlar (e'lonlar, axborot maktublari, veb-sayt ma'lumotlari).

II. Ta'lim dasturlari yo'nalishi

Izoh: Ta'lim dasturlarini ishlab chiqilishi va tasdiqlanishi belgilangan tartibda, milliy malakalar ramkasi, kasbiy standartlar, davlat va xalqaro talablar bilan mosligi, mazmuni milliy ustuvor yo'nalishlar va mehnat bozori ehtiyojlariga muvofiq bo'lishini hamda samaradorligini muntazam monitoring qilinadigan faoliyat baholanadi.

6. MEZON: Manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim talabi va milliy malakalar ramkasi (bundan buyon matnda MMR deb yuritiladi) talablariga muvofiqligi!

Izoh: Ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilganligi, unda manfaatdor tomonlar, ish beruvchilar va sohaviy mutaxassislar ishtirok etganligi hamda milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiq ravishda shakllantirilganligi, shuningdek, rasmiy tartibda tasdiqlanganligi baholanadi.

6.1. INDIKATOR

Ta'lim dasturini ishlab chiqish, tasdiqlash va qayta ko'rib chiqish bo'yicha tartib mavjud

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim dasturini ishlab chiqish, tasdiqlash va qayta ko'rib chiqish jarayoni qanday tartibda amalga oshiriladi?*

❖ *Ta'lim dasturi ishlab chiqilishida izlanuvchilar, ilmiy rahbar(konsultant)lar va ish beruvchilar fikri qanday jalb qilinadi?*

❖ *Tasdiqlangan ta'lim dasturi jamoatchilik va manfaatdor tomonlar uchun ochiq tarzda e'lon qilinadimi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ta'lim dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash bo'yicha tartib.*

6.2. INDIKATOR

Ta'lim dasturini ishlab chiqish jarayonida ish beruvchilar, soha mutaxassislari va ilmiy rahbar (konsultant)lar ishtiroki ta'minlanib, mazkur jarayon tizimli yo'lga qo'yilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim dasturini ishlab chiqish jarayonida ish beruvchilar, soha mutaxassislari va ilmiy rahbar(konsultant)lar ishtiroki qanday ta'minlanadi?*

❖ *Ushbu jarayon tizimli ravishda amalga oshirilayotganini tasdiqlovchi hujjatlar mavjudmi?*

❖ *Ishtirokchilarning taklif va fikr-mulohazalari qanday yig'iladi, qayta ishlanadi va hisobga olinadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Manfaatdor tomonlar ishtirokini tasdiqlovchi hujjatlar.*

6.3. INDIKATOR

Ta'lim dasturi maqsadlari, kutilgan ilmiy natijalari va kompetensiyalari aniq belgilangan hamda o'zaro uzviy bog'langan

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim dasturida maqsadlar, kutilayotgan ilmiy natijalari va kompetensiyalar qanday hujjatlar yoki materiallarda ifodalangan?*

❖ *Ushbu elementlarning o'zaro bog'liqligi va mosligi qanday tasdiqlanadi yoki baholanadi?*

❖ *Izlanuvchi va ilmiy rahbar(konsultant)lar ushbu maqsad va natijalarni tushunishi va ulardan xabardorligi qanday ta'minlanadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *ta'lim dasturi va uning maqsadlar, natijalar va kompetensiyalar aks etgan bo'limi.*

6.4. INDIKATOR

Ta'lim dasturining maqsadlari va kutilgan ilmiy natijalari MMR, davlat ta'lim talabi, kasbiy standart(lar) va (yoki) xalqaro ta'lim standartlariga muvofiq ishlab chiqilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim dasturining maqsadlari va kutilgan tadqiqot natijalari qaysi hujjatlar (MMR, kasbiy standartlar, xalqaro ta'lim standartlari) bilan solishtirib tasdiqlangan?*

❖ *Ushbu me'yoriy va xalqaro talablar izlanuvchilarga yetkazilganligini qanday tasdiqlaysiz?*

❖ *Ta'lim dasturi ushbu standartlarga muvofiqligini qanday ichki monitoring yoki baholash jarayoni orqali tekshiradi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *ta'lim dasturining MMR, davlat ta'lim talabi, kasbiy va yoki xalqaro ta'lim standartlar bilan taqqoslama (moslik) jadvali.*

6.5. INDIKATOR

Ta'lim dasturida sohaga oid dolzarb ilmiy, nazariy va amaliy bilimlar o'z aksini topgan

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim dasturi yakunida beriladigan kvalifikatsiya(lar) qaysi hujjatlar yoki standartlar asosida belgilangan?*

❖ *Ushbu kvalifikatsiyalar izlanuvchilarga dastur davomida yetkazilganligini qanday tasdiqlanadi?*

❖ *Ta'lim dasturi yakunida beriladigan kvalifikatsiya(lar)ning belgilangan me'yorlarga muvofiqligini tekshirish uchun qanday monitoring yoki baholash mexanizmi mavjud?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *ta'lim dasturi va uning yakunida beriladigan kvalifikatsiyalar.*

6.6. INDIKATOR

Ta'lim dasturining maqsadlari va kutilgan ilmiy natijalari ta'lim tashkilotining strategik rejasi (missiyasi, strategiyasi) va akademik profiliga muvofiq ishlab chiqilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim dasturi maqsadlari va kutilgan ilmiy natijalari ta'lim tashkilotining strategik rejasi va akademik profiliga muvofiqlashtirilganini qanday hujjatlar orqali tasdiqlanadi?*

❖ *Ushbu maqsad va natijalar ishlab chiqilishida kimlar (masalan, ish beruvchilar, soha mutaxassislari) jalb qilingan?*

❖ *Ta'lim dasturi maqsadlari va kutilgan ilmiy natijalarining strategik rejaga muvofiqligi muntazam tahlil qilinadimi va natijalar asosida yangilanish amalga oshiriladimi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ta'lim dasturi bo'yicha 3 yillik istiqbolli rivojlantirish rejasi (tasdiqlangan nusxasi)*

✓ *Ta'lim dasturi.*

7. MEZON: Ta'lim dasturini rivojlantirish bo'yicha yillik ustuvor yo'nalishlar ishlab chiqilgani, asosiy faoliyat samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI), zarur resurslar va mas'ullar bilan ta'minlangani

Izoh: *Ta'lim dasturlarini takomillashtirish va rivojlantirish bo'yicha aniq ustuvor yo'nalishlar belgilab olinishi, ularni amalga oshirish uchun maqsadli vazifalar, samaradorlik ko'rsatkichlari tizimli tashkil etilganligi baholanadi.*

7.1. INDIKATOR

Ta'lim dasturini rivojlantirish bo'yicha yillik ustuvor yo'nalishlar rasmiy hujjat (reja yoki dastur) sifatida ishlab chiqilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim dasturini rivojlantirish bo'yicha yillik ustuvor yo'nalishlar rasmiy hujjat (reja yoki dastur) sifatida qanday ishlab chiqilgan?*

❖ *Ta'lim dasturi mazmuni va maqsadlari ustuvor yo'nalishlarga muvofiqligini baholash uchun ichki monitoring yoki ekspert baholash mexanizmi mavjudmi?*

❖ *Ta'lim dasturining strategik maqsadlarga mosligi bo'yicha manfaatdor tomonlar fikr-mulohazalari tizimli ravishda yig'iladimi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ta'lim dasturini tasdiqlanganligini asoslovchi hujjat(lar).*

7.2. INDIKATOR

Yillik ustuvor yo'nalishlar bo'yicha aniq maqsad va vazifalar belgilab qo'yilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim dasturi ishlab chiqishda qanday yillik ustuvor yo'nalishlar belgilab qo'yilgan?*

❖ *Yillik ustuvor yo'nalishlar bo'yicha qanday maqsad va vazifalar belgilangan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ta'lim dasturini ishlab chiqish bo'yicha yillik ustuvor yo'nalishlar.*

7.3. INDIKATOR

Yillik ustuvor yo'nalishlar bo'yicha aniq maqsad va vazifalar uchun samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) ishlab chiqilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Yil uchun belgilangan ustuvor ilmiy yo'nalishlar bo'yicha aniq maqsad va vazifalar rasmiy hujjatlarda belgilanganmi?*

❖ *O'lchanadigan, aniq va muddatli KPI ko'rsatkichlar ishlab chiqilganmi?*

❖ *KPI ko'rsatkichlarining bajarilishi muntazam ravishda monitoring qilinib, tahlil natijalari asosida boshqaruv qarorlari qabul qilinadimi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Tasdiqlangan KPI jadval(lar)i (o'lchov birligi, maqsadli qiymatlar bilan).*

7.4. INDIKATOR

Ta'lim dasturini rivojlantirish bo'yicha yillik faoliyat natijalari tahlil qilinib, keyingi yil uchun taklif va tavsiyalar shakllantirilgan**

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim dasturini rivojlantirish bo'yicha o'tgan yillardagi faoliyat natijalari rasmiy ravishda tahlil qilinganmi?*

❖ *O'tkazilgan tahlil natijalari asosida keyingi yil uchun aniq taklif va tavsiyalar ishlab chiqilganmi va ular tegishli qarorlar bilan tasdiqlanganmi?*

❖ *Shakllantirilgan taklif va tavsiyalar keyingi yil ta'lim dasturi, o'quv rejalari yoki yo'l xaritalarida amalda inobatga olinganmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *ta'lim dasturini rivojlantirish bo'yicha yillik tahliliy hisobot;*

✓ *keyingi yil uchun taklif va tavsiyalar aks etgan xulosa*

7.5. INDIKATOR

Yillik ustuvor yo'nalishlar va KPI ijrosi bo'yicha hisobotlar ta'lim tashkiloti kollegial organida ko'rib chiqilib, tasdiqlangan**

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim tashkilotida hisobot yiliga mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlar va KPI ko'rsatkichlari tasdiqlangan hujjat mavjudmi? (*

❖ *Yillik ustuvor yo'nalishlar va KPI ijrosi bo'yicha yakuniy hisobot ishlab chiqilib, kollegial organ majlisida muhokama qilinganmi?*

❖ *Mazkur hisobot kollegial organ qarori bilan rasman tasdiqlanganligi bayonnoma yoki qaror orqali hujjatlashtirilganmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *yillik ustuvor yo'nalishlar va KPI ijrosi hisobot muhokama qilinganligi bo'yicha kollegial organ bayonnomasi;*

✓ *hisobot va natijalarni tasdiqlovchi kollegial organ qarori yoki rahbar buyrug'i*

8. MEZON: Qabul parametrlari ta'lim tashkilotining tadqiqot va ilmiy rahbarlik salohiyati, jamiyatdagi ilmiy va ijtimoiy ehtiyojlar, mehnat bozori tahlili asosida shakllantirilgani

Izoh: *Qabul parametrlari oliy ta'lim va ilmiy tashkilotning ilmiy salohiyati, jamiyatdagi ilmiy hamda ijtimoiy ehtiyojlar va mehnat bozori tahlili natijalari asosida belgilanganligi, qabul kvotalari va yo'nalishlarini belgilashda ta'lim muassasasining kadrlar va resurslar imkoniyatlari baholanadi.*

8.1. INDIKATOR

Qabul parametrlarini belgilashda mehnat bozori tahlillari va prognozlash ma'lumotlaridan foydalanilgan (oldingi faoliyat natijalari, ilmiy tadqiqot ishini himoya qilgan izlanuvchilarning natijalari)

Yordamchi savollar:

❖ *Qabul parametrlarini belgilashda mehnat bozori ehtiyojlari va hududiy kadrlar talabi tahlil qilinganmi?*

❖ *Oldingi yillarda ilmiy tadqiqot ishini himoya qilgan izlanuvchilar natijalari tahlil qilinib, qabul parametrlarini shakllantirishda hisobga olinganmi?*

❖ *Mehnat bozori prognozlari, ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari asosida qabul kvotalari qayta ko'rib chiqilganmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *mehnat bozori ehtiyojlari va prognozlari asosida tayyorlangan tahliliy ma'lumot (hisobot)ning tasdiqlangan varianti*

8.2. INDIKATOR

Qabul parametrlarini shakllantirishda tegishli ixtisosliklar bo'yicha tadqiqotlar olib borayotgan fan nomzodlari, falsafa doktorlari (PhD) va fan doktorlari salohiyati tahlil qilingan va hisobga olingan*

Yordamchi savollar:

❖ *PhD va fan doktorlari ro'yxati shakllantirilganmi va ularning ilmiy yo'nalishlari qabul qilinayotgan ta'lim dasturlariga mos keladimi?*

❖ *Mazkur ilmiy xodimlarning salohiyati tahlil qilinib, qabul parametrlarini belgilashda inobatga olinganmi?*

❖ *Qabul kvotalari va ixtisosliklar bo'yicha qarorlar ilmiy salohiyat tahliliga asoslangan holda tasdiqlanganini tasdiqlovchi rasmiy hujjatlar mavjudmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *tegishli ixtisosliklar bo'yicha fan nomzodlari, PhD va fan doktorlari salohiyati tahlili (jadval/ro'yxat);*

✓ *ilmiy rahbarlik imkoniyatlari inobatga olingan qabul parametrlarini asoslovchi tahliliy xulosa*

8.3. INDIKATOR

Qabul parametrlarini belgilashda jamiyatning ilmiy va ijtimoiy ehtiyojlari inobatga olingan

Yordamchi savollar:

❖ *Qabul kvotalari va yo'nalishlari mamlakatning ustuvor ilmiy-texnik, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ehtiyojlariga qanchalik mos ravishda shakllantirilgan?*

❖ *Vazirliklar, tarmoq tashkilotlari, ish beruvchilar, ilmiy muassasalar yoki hududiy hokimliklarning taklif va ehtiyojlari qanday inobatga olingan?*

❖ *Oxirgi 3 yil davomida qabul qilingan doktorantlarning ilmiy tadqiqot mavzulari jamiyat, iqtisodiyot yoki ijtimoiy sohalarining dolzarb muammolarini hal etishga qaratilganligini qanday dalillar bilan asoslash mumkin?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *jamiyatning ilmiy va ijtimoiy ehtiyojlariga oid tahliliy ma'lumot;*

8.4. INDIKATOR

Qabul kvotalarini shakllantirish bo'yicha Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi 304-son "Oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga amal qilingan

Yordamchi savollar:

❖ *Oliy ta'limdan keyingi ta'lim bo'yicha qabul kvotalari har yili Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibga muvofiq shakllantirilganmi?*

❖ *Qabul kvotalarini shakllantirishda ilmiy salohiyat, ilmiy rahbarlar soni, moddiy-texnik baza va mavjud ilmiy yo'nalishlar hisobga olinganmi?*

❖ *Tasdiqlangan qabul kvotalari vakolatli organlar bilan kelishilgan va rasmiy buyruq yoki qaror bilan tasdiqlanganmi hamda ochiq e'lon qilinganmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ qabul kvotalarini belgilash bo'yicha ichki buyruq;
- ✓ qabul parametrlarining 304-son qaror talablariga mosligini ko'rsatuvchi moslik jadvali

8.5. INDIKATOR

Qabul natijalari tahlil qilinib, keyingi yil uchun qabul parametrlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan**

Yordamchi savollar:

- ❖ Hisobot yilida oliy ta'limdan keyingi ta'limga qabul natijalari (qabul reja va amaldagi qabul, tanlov ko'rsatkichlari, yo'nalishlar kesimida) qanday tahlil qilingan?
- ❖ Qabul jarayonida aniqlangan muammolar va cheklovchi omillar nimalardan iborat bo'lgan (talab pastligi, kadrlar bazasi, ilmiy rahbarlar yetishmasligi va boshqalar)?
- ❖ O'tkazilgan tahlil natijalariga asoslanib, keyingi o'quv yili uchun qabul parametrlarini (qabul kvotasi, mutaxassisliklar, shakllari o'zgartirish yoki takomillashtirish bo'yicha qanday aniq takliflar ishlab chiqilgan?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ qabul yakunlari bo'yicha tahliliy ma'lumot;
- ✓ keyingi yil qabul parametrlarini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar.

9. MEZON: Ta'lim dasturi ilmiy-tadqiqot rejasida belgilangan davomiylik muddatida kutilayotgan tadqiqot natijalariga erishilishini ta'minlashga qaratilgani !

Izoh: Ta'lim dasturi doirasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyati belgilangan muddatlarda amalga oshirilishi, tadqiqot maqsad va vazifalarining aniq belgilab olinishi, ularning bajarilishi ustidan monitoring olib borilishi, kutilayotgan ilmiy natijalarga bosqichma-bosqich erishishni ta'minlaydigan rejalashtirish, baholash va hisobot tizimi yo'lga qo'yilganligi baholanadi.

9.1. INDIKATOR

Ilmiy-tadqiqot faoliyatini amalga oshirish bo'yicha yillik tadqiqot rejasi mavjud hamda maqsad va vazifalari aniq belgilangan

Yordamchi savollar:

- ❖ Tashkilotda oliy ta'limdan keyingi ta'lim (PhD/DSc) doirasida ilmiy-tadqiqot faoliyatini amalga oshirish bo'yicha yillik tadqiqot rejasi mavjudmi va u rasmiy tartibda tasdiqlanganmi?

❖ *Yillik tadqiqot rejasida ilmiy-tadqiqot faoliyatining aniq maqsadlari, vazifalari, ustuvor yo'nalishlari hamda kutilayotgan natijalari belgilanganmi?*

❖ *Mazkur yillik tadqiqot rejasi oliy ta'limdan keyingi ta'lim yo'nalishlari, dissertatsiya mavzulari va tashkilotning strategik ilmiy rivojlanish hujjatlari bilan uyg'unlashtirilganmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *ilmiy-tadqiqot faoliyati bo'yicha yillik tadqiqot rejasi hamda belgilangan maqsad va vazifalarni asoslovchi tadqiqot yo'nalishlari tavsifi*

9.2. INDIKATOR

Ilmiy-tadqiqot ishlari bo'yicha ijro va natijalarni monitoring qilish tizimi mavjud

Yordamchi savollar:

❖ *Tashkilotda ilmiy-tadqiqot ishlari (ITI) ijrosini doimiy monitoring qilish uchun alohida tizim, reglament yoki mas'ul bo'linma mavjudmi?*

❖ *Ilmiy-tadqiqot ishlari bo'yicha rejalashtirilgan ko'rsatkichlar (mavzular, muddatlar, natijalar, nashrlar, patentlar) bajarilishi qanday tartibda va qaysi davriylikda monitoring qilinadi?*

❖ *Monitoring natijalari asosida ilmiy faoliyatni takomillashtirish bo'yicha qarorlar (hisobotlar, buyruqlar, bayonnomalar) qabul qilinadimi va ular hujjatlashtirilganmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *ilmiy-tadqiqot ishlari monitoringi bo'yicha ichki reglament yoki tartib hamda monitoring natijalari aks etgan oraliq/yakuniy hisobotlar*

9.3. INDIKATOR

Ilmiy-tadqiqot natijalari ilmiy maqolalar, monografiya, tezislar yoki patentlar ko'rinishida rasmiylashtirilgan**

Yordamchi savollar:

❖ *So'nggi 3 yil davomida doktorantlar va mustaqil tadqiqotchilar tomonidan nechta ilmiy maqola, monografiya, tezis yoki patent rasmiylashtirilgan?*

❖ *Mazkur ilmiy natijalar dissertatsiya mavzulari va ta'lim dasturlarida belgilangan ilmiy yo'nalishlarga mos keladimi?*

❖ *Ilmiy natijalar nufuzli milliy yoki xalqaro nashrlarda chop etilgan yoki belgilangan tartibda patent sifatida ro'yxatdan o'tkazilganmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *ilmiy maqolalar, monografiyalar, tezislar yoki patentlar ro'yxati (bibliografik ma'lumotlar bilan).*

9.4. INDIKATOR

Tadqiqot natijalari amaliyotga joriy qilingan (fan, ta'lim, amaliyot yoki metodik ishlarda qo'llanilgan)**

Yordamchi savollar:

❖ *Ilmiy-tadqiqot natijalari qaysi aniq yo'nalishda (ta'lim jarayoni, ishlab chiqarish, ilmiy faoliyat yoki metodik ta'minot) amaliyotga joriy etilgan?*

❖ *Mazkur tadqiqot natijalari qaysi tashkilot faoliyatida qo'llanilgan va qo'llash shakli qanday bo'lgan?*

❖ *Tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish natijasida qanday aniq samaralarga erishilgan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *tadqiqot natijalarini joriy etish bo'yicha dalolatnoma yoki ma'lumotnoma;*

✓ *amaliyotda qo'llanilganini tasdiqlovchi hujjat, metodik qo'llanma yoki shartnoma*

9.5. INDIKATOR

Ilmiy-tadqiqot faoliyati bo'yicha ilmiy rahbar (konsultant)lar tomonidan doimiy nazorat amalga oshirilgan**

Yordamchi savollar:

❖ *Ilmiy rahbar (konsultant) doktorantning individual ish rejasining bajarilishini qanday davriylikda va qaysi shaklda nazorat qilib borgan?*

❖ *Doktorantning ilmiy-tadqiqot natijalari (maqola, tezis, tajriba, boblar) ilmiy rahbar tomonidan ko'rib chiqilib, yozma yoki og'zaki xulosa berilganmi?*

❖ *Ilmiy rahbar (konsultant) tomonidan aniqlangan kamchiliklar bo'yicha doktorantga aniq tavsiyalar berilib, ularning bajarilishi qay tarzda qayd etilgan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *ilmiy rahbar (konsultant)larning hisobotlari yoki xulosalari hamda nazorat va maslahatlar aks etgan individual ish rejalari yoki uchrashuv bayonnomalari*

9.6. INDIKATOR

Tadqiqot ishlari natijasi bo'yicha kafedra/bo'lim yoki kollegial organ muhokamasi o'tkazilgan**

Yordamchi savollar:

❖ *Tadqiqot ishlari yakunlari qaysi kafedra, bo'lim yoki kollegial organ yig'ilishida muhokama qilingan va muhokama qachon o'tkazilgan?*

❖ Muhokama jarayonida tadqiqot natijalari bo'yicha qanday xulosa va tavsiyalar qabul qilingan?

❖ Qabul qilingan qarorlar tadqiqot ishining keyingi bosqichlari (nashr, himoya, joriy etish)ga qanday ta'sir ko'rsatgan?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ kafedra/bo'lim yoki kollegial organ majlis bayonnomasi va muhokama natijalariga doir xulosa (qaror, tavsiyalar).

9.7. INDIKATOR

Ilmiy-tadqiqot ishlari bo'yicha ixtisoslikka mos ilmiy yutuqlar (grantlar, mukofotlar, natijalar) mavjud**

Yordamchi savollar:

❖ Ta'lim dasturi ixtisosligiga mos ravishda oxirgi 5 yil davomida qaysi ilmiy-tadqiqot loyihalari (grantlar) amalga oshirilgan?

❖ Mazkur ixtisoslik bo'yicha professor-o'qituvchilar va ilmiy rahbarlar tomonidan qanday ilmiy natijalar (nashrlar, patentlar, texnologiyalar) yaratilgan?

❖ Ta'lim dasturi doirasida olingan ilmiy yutuqlar (davlat yoki xalqaro mukofotlar, tanlov g'olibliklari) mavjudmi va ular qaysi natijalarga asoslangan?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ ilmiy yutuqlarga erishilganlikni tasdiqlovchi hujjatlar hamda ularni umumlashtiruvchi tahliliy ma'lumot (ro'yxat)

10. MEZON: Amaldagi ta'lim dasturlarining tizimli ravishda monitoringi yuritilgani hamda uning samaradorligini oshirish va takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilgani !

Izoh: Ta'lim dasturlarining samaradorligi tizimli ravishda monitoring qilinganligi, baholash mezonlari va usullari aniq belgilanganligi, monitoring natijalari asosida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlari ishlab chiqilganligi, shuningdek, natijalar elektron axborot tizimida joylashtirilganligi baholanadi.

10.1. INDIKATOR

Ta'lim dasturlarining samaradorligini baholash tartibi va mezonlari ishlab chiqilgan**

Yordamchi savollar:

❖ Ta'lim dasturi samaradorligini baholash tartibi va mezonlarini belgilovchi ichki hujjat qaysi?

❖ Baholash mezonlari ta'lim dasturining kutilgan o'quv natijalari va kompetensiyalariga mosligini qanday tasdiqlaysiz?

❖ *Baholash natijalari muntazam tahlil qilinadimi va natijalar asosida ta'lim dasturi takomillashtiriladimi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ta'lim dasturlari samaradorligini baholash mezonlari va usullarini belgilovchi ichki me'yoriy hujjat.*

10.2. INDIKATOR

Ta'lim dasturi bo'yicha tizimli monitoring va tahlil jarayonlari ta'lim tashkiloti tomonidan belgilangan davriylikda izchil amalga oshiriladi**

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim dasturi bo'yicha monitoring va tahlil jarayonlarini belgilovchi ichki hujjat(lar) mavjudmi?*

❖ *Monitoring va tahlil qanday davriylikda va kim tomonidan amalga oshiriladi?*

❖ *Tahlil natijalari asosida aniqlangan kamchiliklar va takomillashtirish imkoniyatlari bo'yicha chora-tadbirlar belgilanadimi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Monitoring va tahlil rejasi hamda reja ijrosi bo'yicha tahliliy material yoki hisobotlar.*

10.3. INDIKATOR

Monitoring va tahlil natijalari tadqiqot sifati bo'yicha ichki yig'ilishlarda muhokama qilingan va tegishli qarorlar qabul qilingan**

Yordamchi savollar:

❖ *Tadqiqot sifati bo'yicha monitoring va tahlil qaysi mezonlar asosida va qaysi davriylikda amalga oshiriladi?*

❖ *Monitoring va tahlil natijalari qaysi ichki organ yoki yig'ilishlarda muhokama qilingan?*

❖ *Muhokama yakunlari bo'yicha tadqiqot sifatini oshirishga qaratilgan qanday aniq qarorlar yoki chora-tadbirlar qabul qilingan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *ichki yig'ilish (kafedra, ilmiy kengash va boshqalar) bayonnomalari va monitoring natijalari yuzasidan qabul qilingan qarorlar (buyruq yoki bayonnoma ilovasi)*

10.4. INDIKATOR

Monitoring va tahlil natijalari asosida aniqlangan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar tizimli ravishda ishlab chiqiladi hamda mazkur chora-tadbirlarning ijro holati nazoratga olinadi**

Yordamchi savollar:

❖ *Aniqlangan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar qanday hujjat yoki rejalar orqali rasmiylashtiriladi?*

❖ *Chora-tadbirlar qaysi muddatlarda va kim tomonidan amalga oshirilishi belgilangan?*

❖ *Chora-tadbirlarning ijro holati va samaradorligi qanday tartibda nazorat qilinadi va hisoboti yuritiladi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Aniqlangan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi va ijro holati.*

10.5. INDIKATOR

Ta'lim dasturining monitoringi va tahlil natijalari elektron axborot tizimga doimiy joylashtiriladi hamda ulardan ochiq foydalanish imkoniyati mavjud**

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim dasturining monitoring va tahlil natijalari qaysi platforma yoki vositalar orqali ommaga taqdim etiladi?*

❖ *Natijalar ochiq e'lon qilinish tartibi va davriyligi qanday belgilanadi?*

❖ *Izlanuvchilar, ish beruvchilar va boshqa manfaatdor tomonlar ushbu natijalardan qanday foydalanishi mumkinligi tizimli ravishda ta'minlanganmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ochiq e'lon qilingan monitoring materiallari reyestri*

11. MEZON: Ta'lim dasturining mazmunida o'qish jarayoni davomida tadqiqot faoliyatining ko'zda tutilgani va izlanuvchilarni tadqiqot faoliyatiga tayyorlashga yo'naltirilgani 

Izoh: *Ta'lim dasturlari mazmunida ilmiy izlanuvchilarning ilmiy-tadqiqot salohiyatini shakllantirish va mustaqil izlanish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan faoliyat hamda ilmiy etika talablarini joriy etilganligi baholanadi.*

11.1. INDIKATOR

Ilmiy izlanuvchilarning ilmiy-tadqiqot ishlarida ishtirokini ta'minlovchi tadqiqot rejasi va ularni amalga oshirishning mexanizmlari ishlab chiqilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Ilmiy izlanuvchilarning ilmiy-tadqiqot ishlarida ishtiroki qanday rejalashtirilgan*

❖ *Ilmiy izlanuvchilarni tadqiqot ishlariga jalb etish mexanizmlari qanday shakllarda amalga oshiriladi?*

❖ *Ilmiy izlanuvchilarning tadqiqotdagi ishtiroki natijalari qanday monitoring va baholash orqali nazorat qilinadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ *ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish rejasi (yillik va bosqichma-bosqich);*
- ✓ *ilmiy izlanuvchilarni tadqiqot faoliyatiga jalb etish mexanizmlarini belgilovchi ichki tartib yoki reglament to'g'risidagi ma'lumot*

11.2. INDIKATOR

Ilmiy-tadqiqot ishlari uchun ilmiy rahbar (konsultant)lar tomonidan rahbarlik va maslahat tizimi yo'lga qo'yilgan

Yordamchi savollar:

- ❖ *Ilmiy rahbar (konsultant)lar bilan ilmiy izlanish jarayonida muntazam maslahat va rahbarlik uchrashuvlari tashkil etilganmi?*
- ❖ *Ilmiy rahbar (konsultant)lar faoliyati ichki me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solinganmi? (rahbarning huquq va majburiyatlari, javobgarligi belgilanganmi)*
- ❖ *Ilmiy rahbarlik va maslahatlar natijalari monitoring qilinib, tegishli hujjatlarda aks ettiriladimi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ *ilmiy rahbar (konsultant)lar faoliyatini tashkil etish tartibi (nizom yoki yo'riqnoma);*
- ✓ *ilmiy rahbar(konsultant)lar bilan ishlash jadvali yoki maslahatlar o'tkazilganini tasdiqlovchi bayonnomalar*

11.3. INDIKATOR

Ilmiy izlanuvchilarning ilmiy-tadqiqot ishlarini baholash va hisobot tizimi mavjud

Yordamchi savollar:

- ❖ *Ilmiy izlanuvchilarning (PhD, DSc, mustaqil tadqiqotchilar) ilmiy-tadqiqot ishlari qaysi mezonlar asosida va qanday davriylikda baholanadi?*
- ❖ *Ilmiy izlanuvchilar tomonidan bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlari bo'yicha hisobotlar qaysi tartibda taqdim etiladi va kim tomonidan ko'rib chiqiladi?*
- ❖ *Baholash va hisobot natijalari bo'yicha qarorlar (tavsiyalar, ogohlantirishlar, keyingi bosqichga o'tkazish) qanday rasmiylashtiriladi va qayd etiladi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ *ilmiy-tadqiqot ishlarini baholash mezonlari va hisobot topshirish tartibi;*
- ✓ *ilmiy izlanuvchilarning davriy (oralik/yillik) hisobotlari yoki ularning reyestri*

11.4. INDIKATOR

Ilmiy izlanuvchilar uchun ilmiy anjumanlar, konferensiyalar va seminarlarda ishtirok etish imkoniyati yaratilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Ilmiy izlanuvchilarning (PhD, DSc, mustaqil izlanuvchi) respublika va xalqaro ilmiy anjumanlar, konferensiyalar hamda seminarlarda ishtirok etishi oliy ta'lim yoki ilmiy tashkilot tomonidan qanday tartibda qo'llab-quvvatlanadi?*

❖ *Oxirgi 3 yil davomida ilmiy izlanuvchilarning anjuman va konferensiyalarda ishtirok etganligi (ma'ruza, tezis, poster) son va mazmun jihatdan qanday natijalarni bergan?*

❖ *Ilmiy izlanuvchilar uchun ichki (universitet yoki tashkilot miqyosida) va tashqi (respublika, xalqaro) ilmiy tadbirlarda qatnashish bo'yicha reja, e'lon va moliyaviy imkoniyatlar mavjudmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *ilmiy tadbirlarda ishtirok etishni qo'llab-quvvatlash tartibi (buyruq yoki reja);*

✓ *ilmiy izlanuvchilarning konferensiya/seminarlarda ishtirok etganini tasdiqlovchi sertifikatlar*

11.5. INDIKATOR

Ta'lim jarayonida tadqiqot metodologiyasi va ilmiy tahlil usullari bo'yicha mashg'ulotlar o'tkaziladi**

Yordamchi savollar:

❖ *Tadqiqot metodologiyasi va ilmiy tahlil usullari bo'yicha fan (modul) o'quv reja va dasturlariga kiritilganmi hamda u majburiy fan sifatida o'qitiladimi?*

❖ *Mazkur fan doirasida doktorantlarga ilmiy tadqiqot dizayni, ma'lumotlarni qayta ishlash, statistik va sifat tahlili usullari bo'yicha amaliy mashg'ulotlar o'tkaziladimi?*

❖ *Mashg'ulotlarni olib boruvchi professor-o'qituvchilar ilmiy darajaga ega bo'lib, tadqiqot metodologiyasi va ilmiy tahlil bo'yicha yetarli ilmiy-pedagogik tajribaga egami?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *ilmiy tadqiqot metodologiyasi va tahlil usullari bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazish ishchi dasturi*

11.6. INDIKATOR

Ta'lim dasturida ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish bo'yicha yillik tahliliy hisobotlar tayyorlanadi**

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim dasturi doirasida ilmiy-tadqiqot faoliyatining holati bo'yicha yillik tahliliy hisobotlar muntazam tayyorlanadimi va tasdiqlanganmi?*

❖ *Yillik tahliliy hisobotlarda ilmiy-tadqiqot faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari (dissertatsiyalar, ilmiy maqolalar, loyihalar, grantlar, ilmiy rahbarlik) tizimli tahlil qilinganmi?*

❖ *Tahliliy hisobot natijalari asosida ta'lim dasturini va ilmiy-tadqiqot faoliyatini takomillashtirish bo'yicha aniq taklif va choralar ishlab chiqilganmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ *ta'lim dasturi bo'yicha ilmiy-tadqiqot faoliyati yuzasidan yillik tahliliy hisobot;*
- ✓ *muhokama qilingan hisobot natijalari bo'yicha kafedra/bo'lim yoki kollegial organ bayonnomasi*

III. Tadqiqot jarayonini tashkil etish va tadqiqot natijalarini baholash yo'nalishi

Izoh: *Ta'lim dasturlarining maqsad va vazifalariga muvofiq tadqiqot jarayonini belgilangan tadqiqot natijalariga erishishga yo'naltirish, akademik halollik tamoyillariga amal qilishni qamrab olgan tizimli faoliyat baholanadi.*

12. MEZON: Ta'lim dasturida izlanuvchilar faoliyatini baholash tartibining mavjudligi va baholash usullari belgilangan tadqiqot natijalariga qay darajada erishilganini aniqlashga yo'naltirilgani

Izoh: *Ta'lim tashkilot faoliyatini baholash tartibi aniq belgilanganligi, unda baholash usullari va mezonlari tadqiqot rejasi hamda kutilayotgan ilmiy natijalarga erishish darajasini aniqlashga qaratilganligi, shuningdek, baholash jarayonlari tizimli ravishda amalga oshirilishi baholanadi.*

12.1. INDIKATOR

Izlanuvchilar faoliyatini baholash jarayonlarini samarali tashkil etish uchun tartib va uni amalga oshirish mexanizm(lar)i ishlab chiqilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Izlanuvchilarning ilmiy va o'quv faoliyatini baholash tartibi qaysi normativ-huquqiy yoki ichki hujjat bilan tartibga solingan va u qanday mezonlarga asoslanadi?*

❖ *Izlanuvchilar faoliyatini baholash jarayoni kimlar tomonidan, qaysi davriylikda va qanday mexanizm orqali amalga oshiriladi?*

❖ *Baholash natijalari asosida qanday boshqaruv yoki tashkiliy qarorlar qabul qilinadi va ular hujjatlashtiriladimi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ *izlanuvchilar faoliyatini baholash tartibi (nizom, reglament yoki ichki tartib) hamda baholash mexanizmlari va bosqichlarini belgilovchi metodik ko'rsatma*

12.2. INDIKATOR

Ilmiy rahbar (konsultant)lar tomonidan izlanuvchilar faoliyatining samaradorligini muntazam nazorat qilish va baholash tizimi yo'lga qo'yilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Ilmiy rahbar (konsultant)lar tomonidan izlanuvchilarning ilmiy reja va kalendar ish grafigi qanday tartibda tasdiqlanadi va ijrosi qanday nazorat qilinadi?*

❖ *Izlanuvchilarning ilmiy faoliyati natijalari (maqola, dissertatsiya boblari, hisobotlar) qaysi davriylikda baholanadi va baholash natijalari qayerda qayd etiladi?*

❖ *Ilmiy rahbar (konsultant)larning izlanuvchilar bilan ishlash samaradorligi qanday mezonlar asosida tahlil qilinadi va bu natijalar bo'yicha qarorlar qabul qilinadimi*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *ilmiy rahbar (konsultant)lar faoliyatini baholash va nazorat qilish to'g'risidagi tartib (nizom, reglament);*

✓ *ilmiy rahbarlar tomonidan berilgan baholash xulosalari yoki monitoring natijalari*

12.3. INDIKATOR

Izlanuvchilarning yarim yillik va yil yakunidagi ilmiy faoliyati natijalari yuzasidan hisobot taqdim etish amaliyoti mavjud**

Yordamchi savollar:

❖ *Oliy ta'limdan keyingi ta'lim izlanuvchilari (PhD, DSc, mustaqil izlanuvchi) tomonidan yarim yillik va yil yakuni bo'yicha ilmiy faoliyat hisobotlarini topshirish tartibi tasdiqlanganmi?*

❖ *Izlanuvchilar tomonidan taqdim etilgan yarim yillik va yillik ilmiy hisobotlar muntazam ravishda ilmiy rahbar, kafedra va (yoki) ilmiy kengash tomonidan ko'rib chiqiladimi va baholanadimi?*

❖ *Izlanuvchilarning hisobotlarida ilmiy faoliyat natijalari (maqolalar, konferensiyalar, dissertatsiya boblari, grantlar, patentlar) real dalillar bilan tasdiqlanadimi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *yarim yillik va yillik ilmiy hisobot topshirish tartibi va ularning namunalari yoki reyestri*

12.4. INDIKATOR

Hisobot natijalari asosida ilmiy-tadqiqot samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar va chora-tadbirlar ishlab chiqilgan**

Yordamchi savollar:

❖ *Ilmiy-tadqiqot faoliyati natijalari bo'yicha tahliliy hisobotlar tayyorlanganmi va ular qaysi davrni qamrab oladi?*

❖ *Mazkur hisobotlarda ilmiy-tadqiqot samaradorligini oshirishga to'sqinlik qilayotgan muammolar va kamchiliklar aniqlanganmi?*

❖ *Aniqlangan muammolar asosida aniq tavsiyalar va ularni amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilib, tasdiqlanganmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *hisobot natijalari asosida ishlab chiqilgan tavsiyalar va chora-tadbirlar rejasi hamda muhokama qilingan natijalar bo'yicha kafedra/bo'lim yoki kollegial organ bayonnomasi*

12.5. INDIKATOR

Ilmiy ishlar natijalari (maqolalar, monografiya, konferensiya chiqishlari, patentlar) baholash tizimida inobatga olingan**

Yordamchi savollar:

❖ *Ilmiy ishlar natijalari (maqola, monografiya, patent va boshqalar) qaysi ichki hujjat asosida va qanday mezonlar bo'yicha baholanadi?*

❖ *Baholash jarayoni qaysi kollegial organ (kengash, komissiya) tomonidan va qanday davriylikda amalga oshiriladi?*

❖ *Baholash natijalari ta'lim oluvchining (doktorant, tadqiqotchi) individual rejalar, attestatsiyasi yoki rag'batlantirish jarayonlarida qanday inobatga olinadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *baholash tizim(lar)ida ilmiy ishlar natijalari aks etganligi;*

✓ *izlanuvchilarning ilmiy yutuqlari reyestri (hisobotlari)*

12.6. INDIKATOR

Baholash natijalari asosida izlanuvchilarga individual tavsiyalar berib boriladi**

Yordamchi savollar:

❖ *Izlanuvchilarning ilmiy faoliyati qaysi mezonlar asosida va qanchalik muntazam baholanadi?*

❖ *Baholash natijalariga ko'ra izlanuvchiga aniq qanday individual tavsiyalar beriladi va ular qaysi hujjatda aks ettiriladi?*

❖ *Berilgan individual tavsiyalar ijrosini monitoring qilish va qayta baholash mexanizmi mavjudmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ ilmiy rahbar (konsultant) tomonidan berilgan individual tavsiyalar yozma xulosalari;

✓ individual rivojlanish yoki ilmiy faoliyatni takomillashtirish rejasi

13. MEZON: Ta'lim dasturida akademik erkinlik va halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi

Izoh: Akademik erkinlik va halollik tamoyillarining rasmiy ravishda belgilanganligi, ilmiy-tadqiqot faoliyati, ilmiy rahbarlik, natijalarni e'lon qilish va manfaatlar to'qnashuvini oldini olishga qaratilgan choralar hamda ma'lumotlarni soxtalashtirish holatlarini bartaraf etish tizimining mavjudligi baholanadi

13.1. INDIKATOR

Ta'lim tashkilotida akademik halollik, etika va erkinlikka oid tartib (qoidalar) va (yoki) yo'riqnomalar mavjud

Yordamchi savollar:

❖ Ta'lim tashkilotida akademik halollik, ilmiy etika va akademik erkinlikka oid normativ-huquqiy hujjatlar (nizom, tartib, kodeks yoki yo'riqnoma) tasdiqlanganmi va amalda qo'llaniladimi?

❖ Mazkur hujjatlarda plagiat, ma'lumotlarni soxtalashtirish, manfaatlar to'qnashuvi, ilmiy ishlarni mustaqil bajarish hamda akademik erkinlik tamoyillari aniq belgilanganmi?

❖ Doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar va ilmiy rahbarlar mazkur qoidalar bilan tanishtirilganligi va ularga rioya etilishi monitoring qilinadimi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ akademik halollik va etika kodeksi (yoki ichki nizom) va uni ta'minlash bo'yicha ichki tartib

13.2. INDIKATOR

Plagiat va boshqa akademik halollik qoidalari buzilishining oldini olish, aniqlash va bartaraf etish bo'yicha antiplagiat tizimi mavjud

Yordamchi savollar:

❖ Tashkilotda ilmiy ishlar (dissertatsiya, maqola, monografiya va boshqalar) plagiatga tekshirilishini ta'minlaydigan rasmiy antiplagiat tizimi mavjudmi va u amalda qo'llanilyaptimi?

❖ Akademik halollik, plagiat va intellektual mulk masalalarini tartibga soluvchi ichki me'yoriy hujjatlar tasdiqlanganmi va ular doktorantlar hamda ilmiy rahbarlar uchun majburiymi?

❖ *Plagiat aniqlangan holatlarda qanday choralar ko'rilishi (rad etish, qayta ishlash, intizomiy javobgarlik va h.k.) belgilangan va bu amaliyotda qo'llanganmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *antiplagiat tizimidan foydalanish tartibi (yo'riqnoma yoki reglament) va uning tekshiruvlari bo'yicha hisobot namuna yoki reyestr*

13.3. INDIKATOR

Akademik halollik tamoyillari ta'lim dasturini ishlab chiqish, o'qitish, baholash va tadqiqot faoliyati jarayonlariga tizimli ravishda integratsiya qilinadi**

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda akademik halollik tamoyillari qanday normativ va metodik hujjatlar orqali inobatga olingan?*

❖ *O'qitish va baholash jarayonlarida plagiat, akademik firibgarlik va manfaatlar to'qnashuvining oldini olish mexanizmlari qanday joriy etilgan?*

❖ *Doktorantlar va mustaqil tadqiqotchilarning ilmiy-tadqiqot faoliyatida akademik halollik talablariga rioya etilishi qanday nazorat qilinadi va hujjatlashtiriladi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *ta'lim dasturi va fan sillabuslarida akademik halollikka oid bo'limlar;*

✓ *ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, o'qitish, baholash va tadqiqot faoliyatida akademik halollik talablarini belgilovchi metodik ko'rsatmalar*

13.4. INDIKATOR

Akademik halollik qoidalarini buzish holatlarini ko'rib chiqish va javobgarlik choralari belgilash bo'yicha shaffof tartib mavjud**

Yordamchi savollar:

❖ *Akademik halollik qoidalarini buzish holatlari qanday aniqlanadi va rasmiy ravishda qayd etiladi?*

❖ *Akademik halollik buzilishi bo'yicha murojaatlar yoki aniqlangan holatlar qaysi komissiya yoki mas'ul organ tomonidan ko'rib chiqiladi va qaror qabul qilish mexanizmi qanday?*

❖ *Akademik halollik qoidalarini buzgan shaxslarga nisbatan qo'llaniladigan javobgarlik choralari oldindan belgilanganmi va ular barcha manfaatdor tomonlar uchun ochiq va tushunarli tarzda e'lon qilinganmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *akademik halollik intizomiy ishlarni ko'rib chiqish tartibi (nizom yoki reglament) va qoidalarning buzilishi bo'yicha komissiya qarorlari bayonnomasi*

13.5. INDIKATOR

Izlanuvchilar tomonidan yaratilgan ilmiy ishlar, innovatsion g'oyalar yoki ixtirolar bo'yicha mualliflik huquqi va intellektual mulk egaligi aniq belgilangan

Yordamchi savollar:

❖ *Izlanuvchi tomonidan yaratilgan ilmiy ish, innovatsion g'oya yoki ixtiro bo'yicha mualliflik va intellektual mulk egaligi kimga tegishli ekanligi rasmiy hujjatlar bilan belgilanganmi?*

❖ *OTM yoki ilmiy tashkilotda izlanuvchilar tomonidan yaratilgan ilmiy natijalar bo'yicha mualliflik huquqi va intellektual mulkni rasmiylashtirish tartibi ichki hujjatlar orqali tartibga solinganmi?*

❖ *Izlanuvchi va ilmiy rahbar (yoki tashkilot) o'rtasida intellektual mulkdan foydalanish, egalik qilish va tijoratlashtirishga doir huquq va majburiyatlar yozma ravishda belgilanganmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ *intellektual mulk va mualliflik huquqi bo'yicha ichki tartib (nizom);*
- ✓ *izlanuvchilar bilan tuzilgan mualliflik yoki intellektual mulk to'g'risidagi kelishuvlar*

13.6. INDIKATOR

Izlanuvchilar, ilmiy rahbar (konsultant)lar uchun akademik halollik, etika, plagiat, sun'iy intellektdan to'g'ri foydalanish, mualliflik huquqi va manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha muntazam ravishda treninglar (seminarlar, ma'ruzalar) tashkil etiladi**

Yordamchi savollar:

❖ *Oliy ta'limdan keyingi ta'lim izlanuvchilari hamda ularning ilmiy rahbarlari (konsultantlari) uchun akademik halollik, etika, plagiat, sun'iy intellektdan foydalanish, mualliflik huquqi va manfaatlar to'qnashuvi masalalariga bag'ishlangan treninglar (seminarlar, ma'ruzalar) qanchalik muntazam ravishda tashkil etiladi?*

❖ *Mazkur treninglarda sun'iy intellekt vositalaridan (ChatGPT, tarjima va tahrirlash tizimlari va boshqalar) ilmiy faoliyatda foydalanish bo'yicha ruxsat etilgan va taqiqlangan holatlar aniq tushuntirilganmi hamda bu bo'yicha ichki me'yoriy hujjatlar mavjudmi?*

❖ *Treninglarda ishtirok etgan izlanuvchilar va ilmiy rahbarlarning qatnashuvi qay darajada hujjatlashtirilgan (ro'yxat, buyruq, sertifikat, foto/video materiallar) va ushbu tadbirlar natijalari monitoring qilinadimi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ *akademik halollik, etika, plagiat, sun'iy intellektdan to'g'ri foydalanish bo'yicha treninglar/seminarlar rejasi va ishtirok etganlar ro'yxati va sertifikatlar*

13.7. INDIKATOR

Akademik halollik, etika va erkinlik bo'yicha mas'ul shaxs yoki komissiya faoliyati tashkil etilgan**

Yordamchi savollar:

❖ *Tashkilotda akademik halollik, etika va akademik erkinlik masalalari bo'yicha mas'ul shaxs yoki doimiy komissiya rasmiy buyruq bilan tashkil etilganmi?*

❖ *Mazkur mas'ul shaxs yoki komissiyaning vazifalari, funksiyalari va javobgarligi ichki me'yoriy hujjatlar bilan belgilanganmi?*

❖ *Mas'ul shaxs yoki komissiya tomonidan akademik halollik va etika bo'yicha amaliy faoliyat (monitoring, ko'rib chiqish, tushuntirish ishlari) muntazam olib boriladimi va hujjatlashtirilganmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *mas'ul shaxs yoki komissiya faoliyatini tashkil etish bo'yicha buyruq va faoliyat natijadorligi bo'yicha yillik hisobot yoki ish rejasi*

14. MEZON: Izlanuvchilarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi

Izoh: *Izlanuvchilarning baholash jarayonlari va natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini muntazam o'rganish, ularning taklif va e'tirozlarini tahlil qilish hamda ushbu ma'lumotlar asosida ilmiy-tadqiqot faoliyatini takomillashtirish choralarini yo'lga qo'yilganligi, shuningdek, baholash natijalari bo'yicha apellyatsiya berish mexanizmi ochiq va shaffof tarzda amalga oshirilganligi baholanadi*

14.1. INDIKATOR

Izlanuvchilarning baholash natijalari yuzasidan takliflari, fikr-mulohazalari va shikoyatlarini yig'ish, ko'rib chiqish va tahlil qilish, shuningdek ushbu masalalarni bajarish uchun mas'ul ijrochilarni belgilash bo'yicha tartib ishlab chiqilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Izlanuvchilarning baholash natijalari yuzasidan taklif, fikr-mulohaza va shikoyatlarini qabul qilish mexanizmi (yozma, elektron, platforma orqali) qanday tartibda tashkil etilgan?*

❖ *Tushgan taklif va shikoyatlar kim tomonidan, qanday muddatda va qaysi tartibda ko'rib chiqiladi hamda qarorlar rasmiylashtiriladimi?*

❖ *Baholash natijalari yuzasidan tushgan murojaatlar tahlil qilinadimi va ularning natijalariga ko'ra ta'lim jarayonini takomillashtirish bo'yicha choralar ko'riladimi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *izlanuvchilarning baholash natijalari yuzasidan takliflari, fikr-mulohazalari va shikoyatlarini yig'ish, ko'rib chiqish va tahlil qilish tartibi (nizom yoki reglament) hamda mazkur jarayonlar uchun mas'ul ijrochilarni belgilash to'g'risidagi buyruq*

14.2. INDIKATOR

Ishlab chiqilgan tartibda shikoyat berish shakllari, muddatlari, ularni ko'rib chiqish tartibi va qaror qabul qilish mexanizmi belgilangan

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim oluvchilar (doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar) va xodimlar tomonidan shikoyat berishning aniq shakllari va kanallari (yozma, elektron, portal orqali) belgilanganmi va ular ochiq e'lon qilinganmi?*

❖ *Shikoyatlarni qabul qilish, ko'rib chiqish va yakuniy qaror qabul qilish uchun aniq muddatlar (kunlarda) va mas'ul bo'linmalar tartibda ko'rsatilganmi?*

❖ *Shikoyat bo'yicha qabul qilingan qaror haqida murojaatchiga rasmiy ravishda xabardor qilish va qarordan norozi bo'lganda qayta murojaat qilish mexanizmi mavjudmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *shikoyat berish va ko'rib chiqish mexanizmlarini belgilovchi ichki yo'riqnoma hamda shikoyat arizasi (onlayn/oflayn) namunasi*

14.3. INDIKATOR

Takliflar, fikr-mulohazalar va shikoyatlar izlanuvchilar uchun qulay sharoitlarda va ularning ehtiyojlariga mos shakllar orqali qabul qilinadi hamda ularni ko'rib chiqish jarayoni shaffoflik, hisobdorlik va manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik tamoyillariga asosan amalga oshiriladi**

Yordamchi savollar:

❖ *Izlanuvchilar (PhD, DSc, mustaqil tadqiqotchilar) taklif, fikr-mulohaza va shikoyatlarni topshirishi uchun qanday aniq va qulay mexanizmlar (elektron, yozma, anonim) joriy etilgan?*

❖ *Kelib tushgan murojaatlarni ko'rib chiqish tartibi, muddatlari va mas'ul shaxslar ochiq va rasmiy hujjatlar bilan belgilanganmi hamda izlanuvchilarga yetkazilganmi?*

❖ *Murojaatlarni ko'rib chiqishda shaffoflik, hisobdorlik va manfaatlar to'qnashuvining oldini olish bo'yicha qanday amaliy choralar (komissiya tarkibi, betaraflik bayonnomalari) qo'llaniladi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *elektron murojaatlar (portal, LMS, maxsus e-mail) orqali fikr bildirish imkoniyatini tasdiqlovchi hujjat;*

✓ *shaffoflik va manfaatlar to'qnashuvining oldini olish bo'yicha tegishli bo'lim/shaxs va uning faoliyati*

14.4. INDIKATOR

Izlanuvchilarning baholash jarayoni, natijalari bo'yicha shikoyatlari ta'lim tashkilotining apellyatsiya komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi va tizimli ravishda tahlil qilinadi**

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim tashkilotida baholash natijalari yuzasidan shikoyatlarni ko'rib chiqish uchun apellyatsiya komissiyasi tashkil etilganmi va uning faoliyati normativ hujjatlar bilan tartibga solinganmi?*

❖ *So'nggi 3 yil davomida izlanuvchilardan baholash natijalari bo'yicha kelib tushgan shikoyatlar mavjudmi va ular apellyatsiya komissiyasi tomonidan belgilangan tartibda ko'rib chiqilganmi?*

❖ *Apellyatsiya komissiyasi qarorlari natijalari umumlashtirilib, baholash jarayonini takomillashtirish bo'yicha tahlil va xulosalar ishlab chiqiladimi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *apellyatsiya komissiyasini tashkil etish va uning faoliyati to'g'risidagi nizom yoki buyruq hamda ularning yig'ilishlari bayonnomalari (namuna)*

14.5. INDIKATOR

Tahlil natijalari bo'yicha hisobotlar tayyorlanadi hamda baholash jarayonini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilanadi, baholash tartibi va mezonlariga zarur o'zgartirishlar kiritib boriladi**

Yordamchi savollar:

❖ *Baholash natijalari asosida tayyorlangan tahliliy hisobotlar mavjudmi va ular qaysi davrlarni qamrab oladi?*

❖ *Baholash jarayonida aniqlangan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha qanday chora-tadbirlar belgilangan va ular qaysi hujjatlar bilan mustahkamlangan?*

❖ *Baholash tartibi va mezonlariga kiritilgan o'zgartirishlar qanday asoslar (tahlil, monitoring, tashqi ekspert xulosalari) bilan amalga oshirilgan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *taklif va shikoyatlar tahlili bo'yicha davriy (yillik/yarmi yillik) hisobot;*

✓ *baholash tartibi va mezonlariga kiritilgan o'zgartirishlarni tasdiqlovchi hujjatlar*

IV. Izlanuvchilar faoliyati yo'nalishi

Izoh: Izlanuvchilar faoliyatini baholashning rasmiy tartibi belgilanganligi, tadqiqot rejasi hamda kutilayotgan ilmiy natijalarga erishish darajasini aniqlashga qaratilganligi, shuningdek, baholash jarayonlari tizimli ravishda amalga oshirilganligi hamda ular asosida ilmiy-tadqiqot samaradorligini oshirish choralari belgilaydigan faoliyat baholanadi

15. MEZON: Ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani

Izoh: Qabul talablari ilmiy-tadqiqot yo'nalishining maqsad va vazifalariga mos ravishda ishlab chiqilganligi, qabul jarayonlari shaffof, adolatli va xolis tarzda amalga oshirilishi o'rganiladi

15.1. INDIKATOR

Ta'lim dasturiga qabul qilish mezonlari va talablari aniq belgilangan, hujjat topshiruvchilar va barcha manfaatdor tomonlarga ochiq tarzda yetkazish mexanizmi mavjud

Yordamchi savollar:

- ❖ Ta'lim dasturiga qabul qilish mezonlari va talablari (talabgorlar uchun zarur hujjatlar, ilmiy daraja, til sertifikat, ilmiy ishlanmalar va boshqalar) rasmiy hujjatlarda aniq belgilanganmi?
- ❖ Qabul qilish mezonlari va talablari abituriyentlar hamda manfaatdor tomonlar (talabgorlar, ilmiy rahbarlar, kafedralar, ilmiy bo'limlar) uchun ochiq va erkin foydalanish imkoniyatiga ega manbalarda e'lon qilinganmi?
- ❖ Ta'lim dasturiga qabul bo'yicha ma'lumotlarni yetkazish uchun barqaror va ishlaydigan mexanizm (rasmiy veb-sayt, e'lonlar, elektron platformalar, axborot xatlari) mavjudmi va amalda qo'llanilyaptimi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ ta'lim dasturiga qabul qilish tartibi bo'yicha rasmiy hujjat;
- ✓ qabul talablari e'lon qilingan rasmiy manba (veb-sayt sahifasi, portal, axborot e'loni)

15.2. INDIKATOR

Qabul jarayonlari va mezonlari amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq

Yordamchi savollar:

- ❖ Oliy ta'limdan keyingi ta'limga (PhD, DSc, mustaqil izlanuvchilik) qabul jarayonlari amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq tashkil etilganmi?
- ❖ Abituriyentlarga (izlanuvchilarga) qo'yiladigan qabul mezonlari ochiq, shaffof va qonunchilikka mos tarzda e'lon qilinganmi?

❖ *Qabul natijalari va tanlov qarorlari belgilangan tartibda rasmiylashtirilib, manfaatdor tomonlar uchun ochiq axborot sifatida taqdim etiladimi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *qabul jarayonlarini tartibga soluvchi ichki hujjatlarda normativ-huquqiy hujjatlarga havola;*

✓ *qabul tartibining amaldagi qonunchilikka muvofiqligi bo'yicha yuridik xulosa yoki ichki muvofiqlik bayonnomasi*

15.3. INDIKATOR

Qabul komissiyasi tarkibi va ish faoliyati bo'yicha ichki hujjat mavjud

Yordamchi savollar:

❖ *Oliy ta'limdan keyingi ta'lim (PhD, DSc, mustaqil izlanuvchi) bo'yicha qabul komissiyasi tarkibi tashkilot rahbari buyrug'i bilan tasdiqlanganmi va uning tarkibi amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga mosmi?*

❖ *Qabul komissiyasining vazifalari, vakolatlari, ish yuritish tartibi va javobgarligi aniq belgilangan ichki hujjat (nizom yoki reglament) mavjudmi?*

❖ *Qabul komissiyasi faoliyati doirasida hujjatlarni qabul qilish, ko'rib chiqish va qarorlar qabul qilish jarayonlari bo'yicha bayonnomalar va tegishli hisob hujjatlari yuritiladimi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *qabul komissiyasini tashkil etish va uning tarkibini tasdiqlash to'g'risidagi buyruq va faoliyatini tartibga soluvchi nizom yoki reglament*

15.4. INDIKATOR

Qabul jarayoni va natijalari bo'yicha apellyatsiya va qayta ko'rib chiqish mexanizmi mavjud

Yordamchi savollar:

❖ *Qabul natijalaridan norozi bo'lgan abituriyent (mustaqil izlanuvchi, doktorant) uchun apellyatsiya berish tartibi ichki me'yoriy hujjatlar bilan belgilanganmi?*

❖ *Apellyatsiya arizalarini ko'rib chiqish uchun mustaqil yoki maxsus komissiya tashkil etilganmi va uning tarkibi buyruq bilan tasdiqlanganmi?*

❖ *Apellyatsiya natijalari bo'yicha qarorlar rasmiylashtiriladimi va murojaatchiga yozma yoki elektron shaklda yetkaziladimi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *apellyatsiya va qayta ko'rib chiqish tartibi (nizom yoki yo'riqnoma) hamda komissiyasi faoliyatini tasdiqlovchi hujjat (buyruq yoki nizom)*

15.5. INDIKATOR

Ta'lim dasturiga qabul talablari izlanuvchilarning ilmiy-tadqiqot natijalari va boshqa tegishli ichki hamda tashqi mezonlar asosida muntazam ravishda tizimli qayta ko'rib chiqiladi va zarur hollarda yangilanadi**

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim dasturiga qabul talablari qaysi davriylikda va qaysi organ (kengash/komissiya) tomonidan qayta ko'rib chiqiladi?*

❖ *Qabul talablarini shakllantirish va yangilashda izlanuvchilarning ilmiy-tadqiqot natijalari (maqolalar, patentlar, grantlar, loyihalar) qanday mezonlar asosida hisobga olinadi?*

❖ *Ichki va tashqi manfaatdor tomonlar (ilmiy rahbarlar, kafedralar, ish beruvchilar, xorijiy tajriba, milliy va xalqaro talablari) fikrlari qabul talablarini yangilash jarayoniga qanday integratsiya qilinadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *qabul talablari qayta ko'rib chiqilganini tasdiqlovchi kollegial organ bayonnomasi va yangilangan tahrirni tasdiqlovchi buyruq yoki qaror*

16. MEZON: Qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi !

Izoh: *Izlanuvchilarning o'qishga qabul qilinishi, chetlashtirilishi yoki ta'lim muddati uzaytirilishi qonunchilik va ichki me'yoriy hujjatlar asosida aniq belgilangan tartibda amalga oshirilishi, hamda ushbu jarayonlarda shaffoflik va izlanuvchilarning manfaatlarini himoya qilish tamoyillarining ishlab chiqilganligi o'rganiladi*

16.1. INDIKATOR

Qabul yo'nalishlari ta'lim tashkilotining moddiy-texnik bazasi va kadrlar imkoniyatlariga mos belgilangan*

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim tashkilotida mavjud qabul yo'nalishlari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun zarur laboratoriyalar, uskunalar va moddiy-texnik baza mavjudmi hamda ular amalda faoliyat yurityaptimi?*

❖ *Har bir qabul yo'nalishi bo'yicha ilmiy rahbarlikni amalga oshira oladigan yetarli malakaga ega professor-o'qituvchilar va ilmiy xodimlar (PhD, DSc, professor) mavjudmi?*

❖ *Qabul kvotalari va yo'nalishlari soni mavjud moddiy-texnik resurslar va ilmiy kadrlar salohiyatiga mos ravishda belgilanganmi hamda bu ichki hujjatlar bilan asoslanganmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ ta'lim tashkilotining moddiy-texnik baza va kadrlar salohiyati to'g'risidagi tahliliy ma'lumotnoma;

✓ qabul yo'nalishlari va mavjud resurslar o'rtasidagi muvofiqlikni asoslovchi ichki xulosa yoki kollegial organ bayonnomasi

16.2. INDIKATOR

Ilmiy rahbar (konsultant)larning soni doktorantura ta'lim dasturiga qabul qilinadigan izlanuvchilar soniga nisbati qonunchilik hujjatlariga mos keladi

Yordamchi savollar:

❖ Amaldagi qonunchilik hujjatlariga ko'ra, bir nafar ilmiy rahbar (konsultant)ga maksimal nechta doktorant (PhD/DSc) biriktirilishi belgilangan?

❖ Tashkilotda doktorantura ta'lim dasturlarida ilmiy rahbar (konsultant) sifatida jalb etilgan professor-o'qituvchilarning umumiy soni amaldagi doktorantlar soniga nisbatan yetarlimi?

❖ Har bir doktorant (PhD/DSc) uchun belgilangan ilmiy rahbar (konsultant)ning ilmiy darajasi, ish joyi va yuklamasi normativ talablariga mos keladimi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ ilmiy rahbar (konsultant)lar ro'yxati va ularning ilmiy daraja/yo'nalishlari to'g'risidagi ma'lumot;

✓ ilmiy rahbar(konsultant)lar yuklamasi va izlanuvchilar soni nisbatini aks ettiruvchi hisob-kitob jadvali

16.3. INDIKATOR

Moliyaviy imkoniyatlardan (budjet, grantlar, kontrakt tushumlari) kelib chiqqan holda qabul parametrlari shakllantirilgan

Yordamchi savollar:

❖ Ta'lim tashkilotida oliy ta'limdan keyingi ta'lim bo'yicha qabul kvotalari mavjud moliyaviy manbalar (budjet, grant, kontrakt) asosida hisoblab chiqilganmi?

❖ Moliyaviy imkoniyatlar tahlili asosida har bir ta'lim yo'nalishi yoki ilmiy ixtisoslik kesimida qabul parametrlari belgilanganligi hujjatlar bilan tasdiqlanganmi?

❖ Qabul parametrlarini belgilashda moliyaviy ta'minot (stipendiya, ilmiy rahbarlik, moddiy-texnik baza va boshqa xarajatlar)ning yetarliligi inobatga olinganmi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ qabul parametrlari bilan bog'liq moliyaviy asos (budjet, grant, kontrakt tushumlari bo'yicha hisob-kitob);

✓ moliyaviy imkoniyatlar hisobga olingan holda qabul parametrlari tasdiqlangan qaror yoki buyruq

16.4. INDIKATOR

Qabul parametrlari ta'lim tashkilotining strategik rejasi (missiyasi, strategiyasi) va akademik profili bilan uyg'unlashtirilgan

Yordamchi savollar:

❖ Ta'lim tashkilotining strategik rejasi va missiyasida belgilangan ustuvor ilmiy yo'nalishlar doktorantura (PhD/DSc) va mustaqil izlanuvchilar qabuli yo'nalishlarida qanday aks ettirilgan?

❖ Qabul kvotalari va ta'lim dasturlari tashkilotning akademik profili (ilmiy maktablar, laboratoriyalar, ilmiy salohiyat, ilmiy rahbarlar tarkibi) bilan qanday asosda belgilangan?

❖ So'nggi yillarda qabul parametrlari (yo'nalishlar, kvotalar) strategik reja yoki akademik profilga muvofiq ravishda qayta ko'rib chiqilganmi va bu qarorlar qaysi hujjatlar bilan asoslangan?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ ta'lim tashkilotining strategik rejasi (missiya, strategiya) va akademik profili bilan uyg'unligini asoslovchi tahliliy hujjat

16.5. INDIKATOR

Qabul parametrlarini bajarilish holati bo'yicha har yili tahlil amalga oshiriladi hamda tahlil natijalari asosida qabul parametrlariga zarur o'zgartishlar kiritib boriladi**

Yordamchi savollar:

❖ So'nggi 3 yil davomida oliy ta'limdan keyingi ta'lim (PhD, DSc, stajyor-tadqiqotchi) bo'yicha belgilangan qabul parametrlari (reja) va amalda qabul qilinganlar soni o'rtasida qanday farqlar kuzatilgan?

❖ Qabul parametrlari bajarilmasligi yoki ortiqcha bajarilishiga sabab bo'lgan asosiy omillar (ilmiy rahbarlar yetishmasligi, mavzular dolzarbligi, moliyalashtirish, talabgorlar sifati va boshqalar) har yili tahlil qilinganmi?

❖ Yillik tahlil natijalariga asosan qabul parametrlariga (soni, yo'nalishi, ta'lim shakli yoki mutaxassislik kesimida) qanday o'zgartishlar kiritilgan va ular qaysi hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ qabul parametrlari holati bo'yicha yillik tahliliy hisobot;

✓ tahlil natijalari asosida qabul parametrlariga kiritilgan o'zgartirishlarni tasdiqlovchi buyruq yoki qaror

17. MEZON: Izlanuvchilarni o'qishga qabul qilish, o'qishdan chetlashtirish va o'qish muddatini uzaytirish tartibining belgilangani

Izoh: *Izlanuvchilarning ilmiy, psixologik va ma'muriy qo'llab-quvvatlanishini ta'minlovchi tizim mavjudligi, ularning tadqiqot faoliyatini samarali tashkil etilganligi, ilmiy rahbarlar bilan munosabatni mustahkamlash va kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash o'rganiladi*

17.1. INDIKATOR

Izlanuvchilar harakati bo'yicha ichki hujjat(lar) (qoidalar, tartib, nizom) o'qishga qabul qilish, o'qishni ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlarga mos ravishda ishlab chiqilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Tashkilotda izlanuvchilarni o'qishga qabul qilish, o'qishni ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish jarayonlarini tartibga soluvchi tasdiqlangan ichki normativ hujjatlar mavjudmi?*

❖ *Mazkur ichki hujjatlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining oliy ta'limdan keyingi ta'lim bo'yicha amaldagi qarorlari va tegishli normativ-huquqiy hujjatlar talablariga mos ravishda ishlab chiqilganmi?*

❖ *Ichki hujjatlarda izlanuvchilar harakati bilan bog'liq qarorlarni qabul qilish tartibi (asoslar, vakolatli organlar, muddatlar va rasmiylashtirish shakllari) aniq belgilanganmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *izlanuvchilar harakati to'g'risidagi nizom (qabul qilish, ko'chirish, qayta tiklash, chetlashtirish tartibi) hamda mazkur nizomni tasdiqlash haqidagi rektor(direktor) buyrug'i*

17.2. INDIKATOR

Izlanuvchilar harakatiga oid jarayonlar va qarorlar bo'yicha shikoyat berish imkoniyati mavjud

Yordamchi savollar:

❖ *Izlanuvchilar ilmiy faoliyati va harakati bo'yicha qabul qilingan qarorlardan norozi bo'lganda shikoyat berish tartibi normativ hujjatlar bilan belgilanganmi?*

❖ *Shikoyatlarni qabul qilish va ko'rib chiqish uchun mas'ul tuzilma (komissiya, bo'lim yoki mansabdor shaxs) aniq belgilanganmi va bu haqda izlanuvchilar xabardormi?*

❖ *Izlanuvchilar tomonidan berilgan shikoyatlar belgilangan muddatlarda ko'rib chiqilib, natijalari yozma yoki elektron shaklda yetkaziladimi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ izlanuvchilarning murojaatlari va shikoyatlarini ko'rib chiqish tartibi (apellyatsiya reglamenti)

17.3. INDIKATOR

Izlanuvchilar ularning harakati bo'yicha ichki hujjat(lar) (qoidalar, tartib, nizom), izlanuvchilar harakati jarayonlari hamda natijalari haqida xabardor qilinadi**

Yordamchi savollar:

❖ Izlanuvchilarning (PhD/DSc) o'qish jarayonidagi harakati (qabul jarayonlari, attestatsiya ishi, akademik ta'til, qayta tiklash va h.k.lar) qaysi ichki hujjatlar bilan tartibga solingan?

❖ Mazkur hujjatlar va jarayonlar bo'yicha ma'lumotlar izlanuvchilarga qaysi usullar orqali yetkaziladi?

❖ Izlanuvchilar o'z harakati natijalari (attestatsiya qarori, o'qishni davom ettirish yoki to'xtatish, dissertatsiya himoyasi bosqichlari) haqida xabardor qilinganligi qanday hujjatlar bilan tasdiqlanadi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ izlanuvchilarni xabardor qilish mexanizmi belgilangan ichki hujjat (reglament);

✓ rasmiy veb-sayt yoki axborot tizimida joylashtirilgan tegishli

17.4. INDIKATOR

Yakka tartibdagi rejasini belgilangan muddatda bajarmagan izlanuvchilar bilan ishlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar belgilangan**

Yordamchi savollar:

❖ Yakka tartibdagi rejasini belgilangan muddatda bajarmagan izlanuvchilarni aniqlash va monitoring qilish mexanizmi mavjudmi?

❖ Rejani bajarmagan izlanuvchilar bilan ishlash bo'yicha aniq qo'shimcha chora-tadbirlar belgilanganmi va ular hujjatlashtirilganmi?

❖ Ko'rilgan chora-tadbirlar natijadorligi baholanadimi va bu bo'yicha hisobotlar yuritiladimi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ reja ijrosini nazorat qilish va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha tartib yoki reglament;

✓ muayyan izlanuvchilar bo'yicha ishlab chiqilgan individual chora-tadbirlar rejasi

17.5. INDIKATOR

O'qishga qabul qilish, o'qishni ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tegishli buyruq orqali rasmiylashtiriladi**

Yordamchi savollar:

❖ *Oliy ta'limdan keyingi ta'lim (PhD, DSc, mustaqil tadqiqotchilik)ga qabul qilingan har bir talabgor uchun rektor (yoki tashkilot rahbari) tomonidan alohida buyruq rasmiylashtirilganmi?*

❖ *Doktorantlar va mustaqil tadqiqotchilar bo'yicha o'qishni ko'chirish, qayta tiklash yoki chetlashtirish holatlarida tegishli asos (komissiya xulosasi, ariza, qaror) mavjud va u rasmiy buyruq bilan tasdiqlanganmi?*

❖ *Barcha buyruqlar belgilangan tartibda ro'yxatga olingan, raqamlangan va shaxsiy ish hujjatlariga biriktirilganmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *tegishli buyruqlar nusxalari (namunaviy yoki oxirgi yil uchun) hamda ularni rasmiylashtirish va yuritish tartibi*

18. MEZON: Izlanuvchilarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish xizmatlarining mavjudligi !

Izoh: *Izlanuvchilarning ilmiy, psixologik va ma'muriy qo'llab-quvvatlanishini ta'minlovchi tizim mavjudligi, ularning tadqiqot faoliyatini samarali tashkil etilganligi, ilmiy rahbarlar bilan munosabatni mustahkamlash va kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash o'rganiladi.*

18.1. INDIKATOR

Izlanuvchilar uchun psixologik maslahat va yordam markazi mavjud

Yordamchi savollar:

❖ *Tashkilotda izlanuvchilar (PhD, DSc, mustaqil izlanuvchilar) uchun psixologik maslahat va yordam ko'rsatishga mas'ul bo'lgan alohida bo'linma yoki mas'ul shaxs mavjudmi?*

❖ *Psixologik maslahat va yordam ko'rsatish faoliyati tashkilotning ichki me'yoriy hujjatlari bilan tartibga solinganmi?*

❖ *Izlanuvchilarga ko'rsatilgan psixologik maslahat va yordam faoliyati bo'yicha amaliy ishlar va hisobga olish mexanizmi yo'lga qo'yilganmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *psixologik maslahat va yordam markazi (bo'limi) faoliyati to'g'risidagi ichki nizom yoki reglament;*

✓ *markaz tashkil etilganligi va rahbariyati tasdiqlangan rahbar buyrug'i*

18.2. INDIKATOR

Izlanuvchilarni ilmiy va psixologik qo'llab-quvvatlash xizmatlari yo'lga qo'yilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Izlanuvchilar (PhD, DSc, mustaqil izlanuvchilar) uchun ilmiy maslahat va konsultatsiyalar tizimi qanday yo'lga qo'yilgan?*

❖ *Izlanuvchilarga psixologik qo'llab-quvvatlash xizmatlari mavjudmi va ular qanday shaklda amalga oshiriladi?*

❖ *Mazkur xizmatlardan foydalanish bo'yicha izlanuvchilarni xabardor qilish va murojaatlarni qayd etish mexanizmi mavjudmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *izlanuvchilarni ilmiy va psixologik qo'llab-quvvatlash bo'yicha ichki tartib yoki yo'riqnoma;*

✓ *bo'lim yoki xizmat faoliyatini tasdiqlovchi rahbar buyrug'i*

18.3. INDIKATOR

Ilmiy mentorlik (akademik rahbarlik) tizimi joriy etilgan va samarali ishlaydi**

Yordamchi savollar:

❖ *Tashkilotda ilmiy mentorlik (akademik rahbarlik) tizimi normativ-huquqiy hujjatlar bilan rasmiylashtirilganmi va u qanday tartibda amalga oshiriladi?*

❖ *Ilmiy mentorlik jarayonida doktorant (yoki mustaqil tadqiqotchi)ning individual ilmiy rivojlanishi va dissertatsiya ishlari muntazam monitoring qilinadimi?*

❖ *Ilmiy mentorlik tizimining samaradorligi qanday ko'rsatkichlar orqali baholanadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *ilmiy mentorlik tizimi to'g'risidagi hujjat (ichki nizom, tartib)*

18.4. INDIKATOR

Maslahat berish xizmatlaridan foydalanish va ushbu xizmatlarning samaradorligi to'g'risidagi ma'lumotlar muntazam yig'iladi va tahlil qilinadi**

Yordamchi savollar:

❖ *Oliy ta'limdan keyingi ta'lim oluvchilarga (PhD, DSc, mustaqil izlanuvchilar) qanday maslahat berish xizmatlari ko'rsatiladi va ular qaysi yo'nalishlarni qamrab oladi?*

❖ *Maslahat berish xizmatlaridan foydalanish bo'yicha ma'lumotlar qanday shaklda, qaysi davriylikda va kim tomonidan yig'iladi?*

❖ *Yig'ilgan ma'lumotlar asosida maslahat xizmatlarining samaradorligi qanday tahlil qilinadi va natijalari asosida qanday takomillashtirish choralari ko'riladi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *maslahat xizmatlari faoliyati bo'yicha yillik hisobotlar yoki statistika jurnali hamda maslahatlar natijalari va tahlilini aks ettiruvchi ichki monitoring xulosalari*

18.5. INDIKATOR

Izlanuvchilarning maslahat xizmatlariga bo'lgan qoniqish darajasi muntazam o'rganiladi va tizim shu asosda takomillashtiriladi**

Yordamchi savollar:

❖ *Izlanuvchilarning ilmiy rahbar, konsultant va bo'limlar tomonidan ko'rsatilayotgan maslahat xizmatlaridan qoniqish darajasi qanday usulda va qanchalik muntazam o'rganiladi?*

❖ *O'rganish natijalari qayerda rasmiylashtiriladi va ularning tahlili asosida qanday aniq qarorlar yoki takomillashtirish choralari ko'rilgan?*

❖ *Izlanuvchilardan tushgan taklif va e'tirozlar asosida maslahat xizmatlari tizimida so'nggi 1–3 yil davomida qanday o'zgarishlar joriy etilgan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *o'rganish natijalari asosida qilingan tahliliy hisobotlar va ular asosida tizimni takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan hujjat*

V. Inson resurslari yo'nalishi

Izoh: *Ta'lim va ilmiy-tadqiqot jarayonlarini samarali tashkil etish uchun xodimlarning ilmiy salohiyati, malakasi va kompetensiyalarini aniqlash, qo'llab-quvvatlash tizimi, kadrlar tarkibi, kasbiy rivojlanishi va rag'batlantirish mexanizmlarini baholashga qaratilgan faoliyat baholanadi*

19. MEZON: Ilmiy rahbar va konsultantlarning ko'nikma, malaka va ilmiy darajalarining ixtisoslikka mosligi 🚫

Izoh: *Ta'lim dasturi bo'yicha faoliyat yurituvchi ilmiy rahbar va konsultantlarning malakasi, ilmiy darajasi va ilmiy yo'nalishi oliy ta'limdan keyingi ta'lim dasturi ixtisosligiga mos kelishi hamda ilmiy-tadqiqot ishlarini samarali boshqarish qobiliyati o'rganiladi*

19.1. INDIKATOR

Ilmiy rahbar (konsultant)lar ixtisosliklar bo'yicha mos ilmiy daraja va unvonlarga ega

Yordamchi savollar:

❖ Ilmiy rahbar (konsultant)ning ilmiy darajasi va unvoni ta'lim olayotgan doktorant (PhD/DSc) ixtisosligiga mos keladimi?

❖ Ilmiy rahbar (konsultant) so'nggi yillarda aynan ushbu ixtisoslik bo'yicha ilmiy faoliyat olib borganmi?

❖ Ilmiy rahbar (konsultant) belgilangan tartibda ushbu ixtisoslik bo'yicha rahbarlik qilish huquqiga egami?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *ilmiy rahbar (konsultant)larning ilmiy darajasi va unvonini tasdiqlovchi diplomlar, sertifikatlar ro'yxat;*

✓ *ilmiy rahbarlar ro'yxati va ularning ixtisosliklari bilan ta'minlangan ichki hujjat (buyruq, qaror)*

19.2. INDIKATOR

Ilmiy rahbar (konsultant)larning ixtisosliklari ta'lim dasturining yo'nalishiga muvofiq

Yordamchi savollar:

❖ *Ilmiy rahbar (konsultant)ning ilmiy darajasi va ixtisosligi oliy ta'limdan keyingi ta'lim dasturi pasportida belgilangan yo'nalishga to'liq mos keladimi?*

❖ *Ilmiy rahbar (konsultant)ning so'nggi 5 yil ichidagi ilmiy faoliyati (dissertatsiyalar, maqolalar, loyihalar) mazkur ta'lim dasturi yo'nalishi bilan uzviy bog'liqmi?*

❖ *Ta'lim dasturida nazarda tutilgan dissertatsiya mavzulari ilmiy rahbar (konsultant)ning ilmiy qiziqishlari va tadqiqot tajribasiga mos holda shakllantirilganmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *ilmiy rahbar(konsultant)larning ixtisosliklari va ta'lim dasturiga mosligini ko'rsatadigan akademik yuklamalar jadvali yoki ro'yxat*

19.3. INDIKATOR

Ilmiy rahbar (konsultant)larning mos tadqiqot yo'nalishi bo'yicha yuqori impakt faktorli nufuzli ilmiy jurnallarda nashrlari mavjud**

Yordamchi savollar:

❖ *Ilmiy rahbar (konsultant)ning so'nggi 5 yil davomida nashr etilgan ilmiy maqolalari uning rahbarlik qilayotgan doktorant (PhD/DSc) tadqiqot yo'nalishiga mos keladimi?*

❖ *Ilmiy rahbar (konsultant)ning ilmiy maqolalari xalqaro e'tirof etilgan ma'lumotlar bazalarida (Scopus, Web of Science) indekslangan va yuqori impakt faktorli jurnallarda chop etilganmi?*

❖ *Ilmiy rahbar (konsultant)ning nashrlari mualliflik darajasi (birinchi muallif, mas'ul muallif) va mavzu dolzarbligi bo'yicha ilmiy rahbarlik faoliyatini asoslay oladimi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ *ilmiy rahbar(konsultant)larning nashrlar ro'yxati (Web of Science, Scopus);*
- ✓ *nashrlarning to'liq matni yoki DOI bilan tasdiqlovchi hujjatlar*

19.4. INDIKATOR

Ilmiy rahbar (konsultant)lar xorijiy hamda mahalliy malaka oshirish kurslarida, shuningdek boshqa ilmiy-amaliy anjumanlarda ishtirok etganlik to'g'risida sertifikat(ma'lumot)larga ega**

Yordamchi savollar:

❖ *Ilmiy rahbar (konsultant)lar oxirgi 3 yil davomida xorijiy yoki mahalliy malaka oshirish kurslarida ishtirok etganmi va bu holat hujjatlar bilan tasdiqlanganmi?*

❖ *Ilmiy rahbar (konsultant)larning xalqaro yoki respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya, seminar, forum va treninglarda ishtiroki mavjudmi?*

❖ *Ilmiy rahbar (konsultant)larning malaka oshirish va ilmiy anjumanlarda ishtiroki oliy ta'limdan keyingi ta'lim yo'nalishlari va dissertatsiya mavzulariga mos keladimi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *malaka oshirish, stajirovka, ilmiy-amaliy konferensiyalar va seminarlar ishtirokini tasdiqlovchi sertifikatlar yoki diplomlar;*

✓ *ta'lim tashkiloti tomonidan olib borilgan kurs va treninglar ro'yxati va qatnashuvni tasdiqlovchi ichki hujjat*

20. MEZON: Ta'lim dasturi yetarlicha mutaxassis va ma'muriy-boshqaruv xodimlari bilan ta'minlangani, ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga javob berishi

Izoh: *Ta'lim dasturi doirasida ta'lim va tadqiqot jarayonlarini ta'minlovchi ilmiy izlanuvchi, rahbar va konsultantlar hamda boshqaruv kadrlari soni, malakasi va lavozim talabi bo'yicha yetarli darajada ta'minlanganligi o'rganiladi*

20.1. INDIKATOR

Ta'lim dasturi bo'yicha mutaxassis va ma'muriy-boshqaruv xodimlari bilan ta'minlanganlik darajasi belgilangan shtat normativlariga javob beradi

(Bunda yangi ta'lim dasturi uchun mutaxassis va ma'muriy-boshqaruv xodimlari tarkibi bo'yicha aniq reja taqdim etilgan taqdirda mutaxassis va ma'muriy-boshqaruv xodimlari bilan amalda ta'minlanish talab etilmaydi)

Yordamchi savollar:

❖ Mazkur ta'lim dasturi bo'yicha professor-o'qituvchilar va ilmiy rahbarlar soni belgilangan shtat normativlariga mosmi?

❖ Ta'lim dasturini boshqarish va muvofiqlashtirish uchun zarur bo'lgan ma'muriy-boshqaruv xodimlari (dastur rahbari, bo'lim mutaxassisi va boshqalar) bilan ta'minlanganlik yetarlimi?

❖ Mazkur ta'lim dasturi bo'yicha xodimlarning lavozimlari, yuklamalari va funksional vazifalari tasdiqlangan hujjatlar bilan rasmiylashtirilganmi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ shtat jadvali yoki xodimlar taqsimoti ro'yxati (ta'lim dasturiga mos ravishda tasdiqlangan);

✓ yangi ta'lim dasturi uchun xodimlar tarkibi bo'yicha reja grafik

20.2. INDIKATOR

Ilmiy yordamchi kadrlar (laborant, metodist va boshqalar) soni ta'lim dasturlariga mos ta'minlangan

(Bunda yangi ta'lim dasturi uchun ilmiy yordamchi kadrlar tarkibi bo'yicha aniq reja taqdim etilgan taqdirda ilmiy yordamchi kadrlar bilan amalda ta'minlanish talab etilmaydi)

Yordamchi savollar:

❖ Amaldagi ta'lim dasturlari (PhD, DSc) soni va yo'nalishlariga nisbatan ilmiy yordamchi kadrlar (laborant, metodist, muhandis va boshqalar) soni yetarlimi?

❖ Ilmiy yordamchi kadrlarning lavozim vazifalari ta'lim dasturlarida belgilangan ilmiy-tadqiqot va o'quv jarayonlarini qo'llab-quvvatlashga moslashtirilganmi?

❖ Ilmiy yordamchi kadrlarning malakasi va ish tajribasi ta'lim dasturlari mazmuni hamda ilmiy yo'nalishlarga muvofiqmi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ ilmiy yordamchi kadrlar ro'yxati va ularning ta'lim dasturlari bo'yicha tasdiqlangan shtat jadvali bilan mosligi;

✓ yangi ta'lim dasturi uchun ilmiy yordamchi kadrlar tarkibi bo'yicha reja

20.3. INDIKATOR

Xodimlarni rag'batlantirish va lavozim o'sishi tizimi joriy etilgan**

Yordamchi savollar:

❖ Tashkilotda xodimlarni moddiy va nomoddiy rag'batlantirish tizimi mavjudmi va u ichki normativ hujjatlar bilan tasdiqlanganmi?

❖ *Ilmiy-pedagogik va ilmiy xodimlar uchun lavozim o'sishi (martaba rivoji) mezonlari va tartibi belgilanganmi?*

❖ *Rag'batlantirish va lavozim o'sishi jarayonlari shaffof baholash mezonlari asosida amalga oshiriladimi va bu haqda xodimlar xabardormi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *xodimlarni rag'batlantirish tartibi (bonus, mukofot, lavozim o'sishi mexanizmi) va shtat xodimlarini rag'batlantirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar*

21. MEZON: Ilmiy rahbar va konsultantlarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi !

Izoh: *Ilmiy rahbar va konsultantlarning ilmiy-tadqiqot faoliyati samaradorligiga qarab ularni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimi yo'lga qo'yilganligi o'rganiladi*

21.1. INDIKATOR

Ilmiy rahbar (konsultant)lar uchun mukofot va qo'shimcha haq to'lash tartibi mavjud

Yordamchi savollar:

❖ *Ilmiy rahbar (konsultant)lar uchun mukofot va qo'shimcha haq to'lash tartibi qaysi normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilangan?*

❖ *Mukofot va qo'shimcha haq to'lash mezonlari qanday asoslarda belgilanadi?*

❖ *Mazkur tartib amaliyotda qo'llanilayotganligini tasdiqlovchi real moliyaviy yoki tashkiliy hujjatlar mavjudmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *ilmiy rahbar (konsultant)lar uchun mukofot va qo'shimcha to'lovlarni belgilovchi ichki tartib yoki yo'riqnoma;*

✓ *mazkur tartibni tasdiqlovchi rektor (direktor) buyrug'i*

21.2. INDIKATOR

Ilmiy rahbar (konsultant)lik faoliyati samaradorligini baholash tizimi mavjud

Yordamchi savollar:

❖ *Tashkilotda ilmiy rahbar (konsultant)lik faoliyatini baholash bo'yicha tasdiqlangan ichki me'yoriy hujjat (nizom, reglament yoki tartib) mavjudmi va u amalda qo'llaniladimi?*

❖ *Ilmiy rahbar (konsultant)lik faoliyati samaradorligini baholashda aniq mezonlar (dissertatsiya himoyasi natijalari, muddatlarga rioya etilishi, ilmiy nashrlar, doktorantlarning yutuqlari va h.k.) belgilanganmi?*

❖ *Baholash natijalari ilmiy rahbar (konsultant)lar faoliyatini rag'batlantirish, reytingini shakllantirish yoki boshqaruv qarorlarini qabul qilishda inobatga olinadimi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *ilmiy rahbar(konsultant)larning faoliyatini baholash tartibi belgilovchi ichki hujjat;*

✓ *baholash natijalarini tasdiqlovchi yillik hisobotlar yoki monitoring xulosalari*

21.3. INDIKATOR

Ilmiy faoliyatda faol bo'lgan xodimlar moddiy va ma'naviy rag'batlantiriladi**

Yordamchi savollar:

❖ *Ilmiy faoliyatda yuqori natijalarga erishgan xodimlarni aniqlash mezonlari qanday belgilangan va ular qaysi normativ hujjat asosida baholanadi?*

❖ *So'nggi 3 yil davomida ilmiy faoliyati uchun moddiy yoki ma'naviy rag'batlantirilgan xodimlar soni va ularga berilgan rag'batlantirish turlari qanday?*

❖ *Ilmiy xodimlarni rag'batlantirish tizimi shaffofligi va muntazamligini ta'minlovchi ichki mexanizmlar (komissiya, buyruq, baholash tartibi) mavjudmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *ilmiy faoliyatda faol xodimlarni rag'batlantirish tartibi (bonuslar, mukofotlar, sertifikatlar)*

22. MEZON: Xorijlik ilmiy rahbar va konsultantlarni jalb qilish imkoniyatlarining mavjudligi !

Izoh: *Ta'lim dasturlari bo'yicha ta'lim tashkilotida xalqaro ilmiy hamkorlikni kengaytirish maqsadida xorijiy ilmiy rahbar va konsultantlarni jalb etish imkoniyatlari yaratilganligi va amalda qo'llanilishi o'rganiladi*

22.1. INDIKATOR

Xorijiy ilmiy rahbar (konsultant)lar bilan tuzilgan shartnomalar mavjud**

Yordamchi savollar:

❖ *Tashkilot tomonidan xorijiy ilmiy rahbar (konsultant)lar bilan rasmiy shartnomalar yoki hamkorlik kelishuvlari tuzilganmi?*

❖ *Xorijiy ilmiy rahbar (konsultant)lar oliy ta'limdan keyingi ta'lim oluvchilarning (PhD, DSc) ilmiy tadqiqotlariga amalda jalb etilganmi?*

❖ *Xorijiy ilmiy rahbar (konsultant)lar bilan hamkorlik natijalari hujjatlar bilan tasdiqlanganmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *xorijiy ilmiy rahbar(konsultant)lar bilan tuzilgan shartnoma yoki memorandum nusxalari;*

✓ *tashkilot ichki buyruqlari yoki qarorlari, shartnomalarni rasmiylashtirish bo'yicha tasdiqlangan tartib*

22.2. INDIKATOR

Xorijiy ilmiy rahbar (konsultant)lar ishtirokidagi ilmiy-tadqiqot ishlari mavjud**

Yordamchi savollar:

❖ *Doktorant (PhD/DSc) ilmiy tadqiqot mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy rahbar yoki konsultant rasmiy ravishda biriktirilganmi?*

❖ *Xorijiy ilmiy rahbar (konsultant)ning ilmiy-tadqiqot jarayonidagi ishtiroki hujjatlar bilan tasdiqlanganmi?*

❖ *Xorijiy ilmiy rahbar (konsultant) ishtirokidagi ilmiy-tadqiqot ishlari doktorantura ta'lim dasturida rejalashtirilgan va amalda bajarilayotganmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *xorijiy rahbar(konsultant)lar bilan amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot ishlar hisobotlari*

22.3. INDIKATOR

Xorijiy ilmiy tashkilotlar (tashkilot xodimlari) bilan qo'shma ilmiy loyihalar va tadqiqot natijalari mavjud**

Yordamchi savollar:

❖ *Tashkilot xorijiy ilmiy yoki ta'lim muassasalari bilan qo'shma ilmiy loyihalarda ishtirok etganmi?*

❖ *Mazkur qo'shma ilmiy loyihalar doirasida ilmiy natijalar olinganmi?*

❖ *Qo'shma loyihalarda tashkilot xodimlari yoki doktorantlari bevosita ishtirok etganmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *xorijiy ilmiy tashkilot(xodim)lar bilan tuzilgan qo'shma loyiha shartnomalari va bitimlar;*

✓ *qo'shma loyihalar bo'yicha hisobotlar yoki nashrlar ro'yxati*

22.4. INDIKATOR

Xorijiy ilmiy rahbar (konsultant)lar tomonidan masofaviy maslahat berish tizimi yo'lga qo'yilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Xorijiy ilmiy rahbar (konsultant)lar bilan masofaviy maslahatlar berish tartibi universitet (yoki ilmiy tashkilot) ichki hujjatlari bilan rasmiylashtirilganmi?*

❖ *Oliy ta'limdan keyingi ta'lim oluvchilar (PhD/DSc/izlanuvchilar) uchun xorijiy ilmiy rahbarlar tomonidan onlayn maslahatlar berilganligini tasdiqlovchi dalillar mavjudmi?*

❖ *Masofaviy maslahatlar qaysi raqamli platformalar orqali va qanday muntazamlikda amalga oshiriladi hamda bu jarayon monitoring qilinadimi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *masofaviy maslahat berish tartibini tasdiqlovchi yo'riqnoma (ichki hujjat)*

22.5. INDIKATOR

Xorijiy ilmiy rahbar (konsultant)larni jalb qilish uchun huquqiy hamda moliyaviy asos mavjud

Yordamchi savollar:

❖ *Tashkilotda xorijiy ilmiy rahbar (konsultant)larni doktorantura (PhD/DSc) jarayoniga jalb etishni nazarda tutuvchi ichki normativ-huquqiy hujjatlar mavjudmi?*

❖ *Xorijiy ilmiy rahbar (konsultant)lar bilan shartnoma tuzish, ularning vakolatlari va majburiyatlarini belgilash tartibi tasdiqlanganmi?*

❖ *Xorijiy ilmiy rahbar (konsultant)lar xizmatiga haq to'lash yoki moliyalashtirish manbalari (byudjetdan tashqari mablag'lar, grantlar va boshqalar) aniq belgilanganmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *xorijiy ilmiy rahbar(konsultant)larni jalb qilishni tartibga soluvchi ichki hujjatlar (buyruq, yo'riqnoma);*

✓ *moliyaviy manbalar (byudjet, grant mablag'lari, shartnomalar) mavjudligini tasdiqlovchi hujjatlar*

VI. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi

Izoh: Ta'lim dasturlarini amalga oshirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish hamda izlanuvchilar uchun qulay ta'lim va tadqiqot muhitini yaratishga xizmat qiluvchi infratuzilma, laboratoriyalar, asbob-uskunalar, axborot resurslari va inklyuziv sharoitlarning yetarli darajada ta'minlanganligini qamrab olishi, ta'lim va ilmiy faoliyat samaradorligining amaliy asosi baholanadigan faoliyat baholanadi

23. MEZON: Ixtisoslik xususiyatidan va izlanuvchilar sonidan kelib chiqib, tadqiqot sohasi bo'yicha ilmiy manbalarning mavjudligi va elektron resurslar bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani !

Izoh: Ta'lim tashkilotda ilmiy-tadqiqot faoliyatini amalga oshirish uchun ixtisoslik yo'nalishiga mos ilmiy adabiyotlar, elektron ma'lumotlar bazalari va zamonaviy axborot resurslari bilan ta'minlanganligi o'rganiladi

23.1. INDIKATOR

Ilmiy kutubxona fondi barcha ixtisosliklarni qamrab olgan va doimiy yangilanib boriladi

Yordamchi savollar:

❖ *Ilmiy kutubxona fondida tashkilotda mavjud barcha tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchi ixtisosliklari bo'yicha yetarli miqdorda ilmiy adabiyotlar mavjudmi?*

❖ *So'nggi 3 yil davomida ilmiy kutubxona fondi qanday mexanizm asosida va qaysi manbalar hisobidan yangilanib borgan?*

❖ *Doktorantlar va ilmiy izlanuvchilar xalqaro ilmiy axborot-resurs bazalaridan (Scopus, Web of Science va boshqalar) foydalanish imkoniyatiga egami?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *kutubxona fondi inventarizatsiyasi va yangilanish jadvali.*

23.2. INDIKATOR

Elektron kutubxona va ma'lumotlar bazalari mavjud

Yordamchi savollar:

❖ *Tashkilotda elektron kutubxona platformasi mavjudmi va u doimiy ishlaydimi?*

❖ *Ta'lim oluvchilar va ilmiy xodimlar xalqaro va milliy ilmiy ma'lumotlar bazalaridan foydalanish huquqiga egami?*

❖ *Elektron resurslardan foydalanish tartibi va statistikasi (foydalanuvchilar soni, yuklab olishlar) yuritiladimi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *elektron kutubxona va ilmiy ma'lumotlar bazalari ro'yxati hamda foydalanish tartibi (ichki yo'riqnoma)*

23.3. INDIKATOR

Ilmiy manbalarga izlanuvchilarning onlayn kirish imkoniyati mavjud

Yordamchi savollar:

❖ *Izlanuvchilar (PhD, DSc, mustaqil izlanuvchilar) xalqaro va milliy ilmiy ma'lumotlar bazalariga masofaviy (onlayn) tarzda kirish imkoniyatiga egami?*

❖ *Ilmiy tashkilot yoki oliy ta'lim muassasasida elektron kutubxona, repozitori yoki axborot-resurs markazi orqali 24/7 onlayn foydalanish mexanizmi joriy etilganmi?*

❖ *Izlanuvchilar uchun ilmiy manbalardan foydalanish bo'yicha login/parol, IP-manzil yoki yagona identifikatsiya asosida kirish tartibi hujjatlashtirilganmi va amalda ishlayaptimi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *onlayn foydalanish tizimi (login, parol va foydalanish tartibi) tartibi*

23.4. INDIKATOR

Ilmiy adabiyotlar ro'yxatida xalqaro nashrlar ulushi qonunchilik hujjatlardagi talablarga mos

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim dasturida tavsiya etilgan ilmiy adabiyotlar ro'yxatida xalqaro nashrlar (Scopus, Web of Science, Springer, Elsevier va boshqalar) ulushi belgilangan me'yorlarga mosmi?*

❖ *Ilmiy adabiyotlar ro'yxatiga kiritilgan xalqaro nashrlar oxirgi 5–10 yil davomida chop etilgan, dolzarb va yo'nalishga mos manbalardan iboratmi?*

❖ *Doktorantura (PhD/DSc) va mustaqil izlanuvchilar uchun ishlab chiqilgan fan dasturlarida xalqaro ilmiy manbalardan foydalanish majburiyligi hujjatlarda aniq belgilanganmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *ilmiy adabiyotlar ro'yxati va undagi xalqaro nashrlar ulushi bo'yicha hisobot*

23.5. INDIKATOR

Izlanuvchilarning ilmiy manbalardan foydalanish faolligi bo'yicha statistikasi yuritiladi**

Yordamchi savollar:

❖ *Izlanuvchilarning ilmiy ma'lumotlar bazalaridan (Scopus, Web of Science, Google Scholar va boshqalar) foydalanish ko'rsatkichlari tizimli ravishda qayd etiladimi?*

❖ *Kutubxona va elektron resurslar orqali olingan ilmiy manbalar (maqola, monografiya, dissertatsiya) bo'yicha izlanuvchilar kesimida tahlil olib boriladimi?*

❖ *Ilmiy manbalardan foydalanish faolligi natijalari izlanuvchilarning ilmiy faoliyati (maqola, dissertatsiya boblari, hisobotlar) bilan bog'lab baholanadimi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ kutubxona va elektron resurslar foydalanish statistikasi;
- ✓ monitoring natijalari asosida chora-tadbirlar va takliflarni ko'rsatadigan ichki hujjatlar

24. MEZON: Mahalliy hamda xalqaro axborot va ma'lumotlar bazasidan (Scopus, Web of Science yoki boshqa umume'tirof etilgan indeksatsiyalangan ma'lumotlar bazalari jurnallari) foydalanish imkoniyatlarining yaratilgani

Izoh: Ta'lim tashkilotda izlanuvchilar va ilmiy xodimlar uchun Scopus, Web of Science, Springer, Elsevier va shunga o'xshash xalqaro ma'lumotlar bazalariga foydalanish imkoniyati yaratganligi o'rganiladi

24.1. INDIKATOR

Ta'lim tashkiloti xalqaro umume'tirof etilgan indeksatsiyalangan ma'lumotlar bazalariga rasmiy ravishda obuna bo'lgan

Yordamchi savollar:

- ❖ Ta'lim tashkiloti qaysi xalqaro umume'tirof etilgan indeksatsiyalangan ilmiy ma'lumotlar bazalariga rasmiy obuna bo'lgan va ushbu obuna qaysi davrni qamrab oladi?
- ❖ Mazkur ma'lumotlar bazalaridan doktorantlar va ilmiy xodimlar foydalanishi uchun qanday tashkiliy va texnik sharoitlar yaratilgan?
- ❖ Ma'lumotlar bazalaridan foydalanish ilmiy tadqiqotlar, dissertatsiyalar va ilmiy maqolalar tayyorlash jarayonida qanday amaliy natija bergan?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ xalqaro indeksatsiyalangan ma'lumotlar bazalariga (Scopus, Web of Science va boshqalar) obuna

24.2. INDIKATOR

Izlanuvchilarga xalqaro umume'tirof etilgan indeksatsiyalangan ma'lumotlar bazalaridan foydalanish bo'yicha imkoniyat yaratilgan

Yordamchi savollar:

- ❖ Tashkilotda qaysi xalqaro indeksatsiyalangan ma'lumotlar bazalariga rasmiy obuna mavjud va ular izlanuvchilar uchun ochiqmi?
- ❖ Izlanuvchilarning mazkur ma'lumotlar bazalaridan foydalanishi qanday mexanizm orqali ta'minlangan?
- ❖ Izlanuvchilarni ushbu bazalardan samarali foydalanishga o'rgatish va yo'naltirish bo'yicha qanday amaliy ishlar olib borilgan?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *foydalanish tartibi va yo'riqnomasi*

24.3. INDIKATOR

Xalqaro bazalardan foydalanish bo'yicha o'quv seminarlari o'tkaziladi**

Yordamchi savollar:

❖ *So'nggi 3 yil davomida doktorantlar, mustaqil tadqiqotchilar va ilmiy xodimlar uchun qaysi xalqaro ilmiy bazalar (Scopus, Web of Science va boshqalar) bo'yicha o'quv seminarlari tashkil etilgan?*

❖ *Mazkur o'quv seminarlarini o'tkazishda ishtirokchilar tarkibi (PhD, DSc, mustaqil tadqiqotchilar) va ularning qamrovi (soni va ulushi) qanday bo'lgan?*

❖ *O'tkazilgan seminarlar ilmiy faoliyat samaradorligiga (xalqaro bazalarda maqolalar chop etilishi, indeksatsiya, iqtiboslar) qanday ta'sir ko'rsatgan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *o'quv seminarlarni rejalashtirish va o'tkazish bo'yicha dastur va jadval*

24.4. INDIKATOR

Foydalanish statistikasi (izlanuvchi faolligi) mavjud va doimiy yuritiladi**

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim dasturi doirasida izlanuvchilarning (PhD, DSc, mustaqil tadqiqotchi) ilmiy va o'quv faolligi qanday axborot tizimi yoki reyestr orqali hisobga olinadi va monitoring qilinadi?*

❖ *Izlanuvchilarning faolligiga oid statistik ma'lumotlar qanchalik muntazam ravishda yangilanadi va kim tomonidan mas'ul ravishda yuritiladi?*

❖ *Yig'ilgan foydalanish statistikasi ta'lim dasturini takomillashtirish, individual o'quv-trayektoriya yoki nazorat qarorlarini qabul qilishda amalda qanday qo'llaniladi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *xalqaro ma'lumotlar bazalaridan foydalanish bo'yicha foydalanuvchi statistikasi hisobotlari*

24.5. INDIKATOR

Xalqaro ma'lumotlar bazalari bo'yicha ichki yo'riqnoma mavjud

Yordamchi savollar:

❖ *Tashkilotda xalqaro ilmiy ma'lumotlar bazalari bilan ishlash tartibini belgilovchi rasmiy ichki yo'riqnoma tasdiqlanganmi?*

❖ *Ichki yo'riqnomada xalqaro ma'lumotlar bazalaridan foydalanish, ilmiy natijalarni joylashtirish, profillarni yuritish va monitoring qilish mexanizmlari aniq belgilanganmi?*

❖ Mazkur yo'riqnoma doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar va ilmiy rahbarlar uchun majburiy hujjat sifatida amaliyotga joriy etilganmi (tanishtirish, ijro va nazorat mavjudmi)?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ xalqaro ma'lumotlar bazalaridan foydalanish tartibini belgilovchi ichki yo'riqnoma;

✓ yo'riqnoma tasdiqlanganligi to'g'risidagi rektor(direktor) buyrug'i

25. MEZON: Ilmiy-eksperimental laboratoriyalar bilan ta'minlanganlik darajasi, ularning zamonaviy asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalar bilan ta'minlangani va ulardan foydalanilishi holati!

Izoh: Ta'lim tashkilotda ilmiy-tadqiqot va amaliy ishlar uchun zamonaviy laboratoriyalar, asbob-uskunalar, jihozlar va tajriba uchun zarur xomashyo materiallari bilan yetarli darajada ta'minlanganligi hamda ulardan samarali foydalanish tizimi yo'lga qo'yilganligi o'rganiladi

25.1. INDIKATOR

Ilmiy-eksperimental laboratoriyalardagi asbob-uskunalar va ularning soni mavjud barcha ixtisosliklariga mos keladi

Yordamchi savollar:

❖ Mavjud asbob-uskunalar ro'yxati oliy ta'limdan keyingi ta'limning barcha ixtisosliklari bo'yicha o'quv va ilmiy tadqiqot ishlarini bajarish uchun yetarliymi?

❖ Ixtisosliklar bo'yicha o'quv reja va ilmiy tadqiqot mavzulariga mos maxsus laboratoriya asbob-uskunalar mavjudmi hamda ular real foydalanilyaptimi?

❖ Laboratoriya asbob-uskunalarining soni izlanuvchilar soniga mutanosib holda yetarliymi (navbat, cheklovlarisiz foydalanish imkoniyati bormi)?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ laboratoriya(lar)ning inventarizatsiya ro'yxati va ixtisosliklarga mosligini ko'rsatadigan hisobot

25.2. INDIKATOR

Asbob-uskunalarining zamonaviyligi, texnik holati va yaroqlilik muddatlari doimiy ravishda nazorat qilinadi va yangilanib boriladi

Yordamchi savollar:

❖ Ilmiy va ta'lim jarayonida foydalanilayotgan asbob-uskunalar soha bo'yicha amaldagi ilmiy-tadqiqot va ta'lim standartlariga qanchalik mos keladi?

❖ Asbob-uskunalarining texnik holatini doimiy nazorat qilish va yaroqlilik muddatini monitoring qilish bo'yicha qanday tartib va mas'ullar belgilangan?

❖ *Asbob-uskunalar*ni yangilash, modernizatsiya qilish yoki almashtirish bo'yicha qanday reja va moliyalashtirish mexanizmi mavjud?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *asbob-uskunalar*ning texnik pasportlari va texnik ko'rikdan o'tganligini tasdiqlovchi hujjatlar;

✓ texnik xizmat ko'rsatish (ta'mirlash, profilaktika) ishlari bo'yicha hisobot

25.3. INDIKATOR

Ilmiy-eksperimental laboratoriyalardan foydalanish grafigi va izlanuvchilar ishtiroki ta'minlangan

Yordamchi savollar:

❖ *Foydalanish qanday grafik asosida tashkil etilgan va ushbu grafikda PhD/DSc izlanuvchilarning ishtiroki qay darajada aks ettirilgan?*

❖ *Izlanuvchilar (PhD, DSc, mustaqil izlanuvchi) qaysi laboratoriyalarda, qaysi mavzular doirasida va qanday shaklda (tajriba, sinov, o'lchov) ishtirok etmoqda?*

❖ *Laboratoriya mashg'ulotlari va ilmiy tajribalar izlanuvchilarning individual ilmiy rejaları hamda dissertatsiya mavzulariga qanchalik moslashtirilgan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *laboratoriyalardan foydalanish jadvali va foydalanuvchi (izlanuvchi) ro'yxatlari;*

✓ *izlanuvchilar ishtiroki bo'yicha hisobotlar va monitoring natijalari*

25.4. INDIKATOR

Asbob-uskunalar, jihozlar va texnikalarning texnik pasportlari mavjud, texnik ko'rikdan o'tkazilgan, texnik xizmat ko'rsatilganlik (ta'mirlash, profilaktika) ishlari hujjatlashtirib boriladi**

Yordamchi savollar:

❖ *Ilmiy va o'quv jarayonida foydalanilayotgan barcha asbob-uskunalar va texnikalarning texnik pasportlari mavjudmi va ular belgilangan tartibda saqlanmoqdam?*

❖ *Asbob-uskunalar belgilangan muddatlarda texnik ko'rikdan o'tkazilganmi va bu holat tegishli dalolatnomalar yoki qaydlar bilan rasmiylashtirilganmi?*

❖ *Texnik xizmat ko'rsatish, ta'mirlash va profilaktika ishlari bo'yicha muntazam hujjatlar (jurnal, dalolatnoma, buyruq) yuritiladimi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *asbob-uskunalar*ning texnik pasportlari va texnik ko'rikdan o'tganligini tasdiqlovchi hujjatlar

26. MEZON: Inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan (bundan buyon matnda AKT deb yuritiladi) foydalanish imkoniyati yaratilgani 

Izoh: Ta'lim tashkilotda imkoniyati cheklangan shaxslar uchun infratuzilma va ta'lim muhiti moslashtirilgan bo'lib, binolar, jihozlar, axborot resurslari hamda ta'lim materiallaridan teng foydalanish imkoniyati yaratilganligi o'rganiladi

26.1. INDIKATOR

Ta'lim tashkiloti binolari va o'quv xonalari, shu jumladan yo'laklar, panduslar, liftlar, eshiklar va sanitariya xonalari nogironligi bo'lgan shaxslar (izlanuvchilar) uchun moslashtirilgan

Yordamchi savollar:

❖ Ta'lim tashkiloti binosiga kirish joylari nogironligi bo'lgan shaxslar uchun panduslar, qo'l ushlagichlar va sirpanmas qoplamalar bilan jihozlanganmi?

❖ Ichki infratuzilma (yo'laklar, eshik kengliklari, liftlar, zinapoyalar) nogironligi bo'lgan shaxslarning erkin va xavfsiz harakatlanishiga moslashtirilganmi?

❖ Sanitariya-gigiyena xonalari (hojatxonalar) nogironligi bo'lgan shaxslar uchun maxsus jihozlar bilan ta'minlanganmi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ binolar va o'quv xonalari, yo'laklar, panduslar, liftlar, eshiklar va sanitariya xonalarining inklyuziv talablarga mosligini tasdiqlovchi texnik hujjatlar;

✓ moslashtirish ishlari bo'yicha amalga oshirilgan ishlar ro'yxati va monitoring hisobotlari

26.2. INDIKATOR

Maxsus o'quv materiallari (Brayl alifbosidagi kitoblar, ko'rgazmali materiallar), maxsus jihozlar va yordamchi texnik vositalar mavjud

Yordamchi savollar:

❖ Nogironligi bo'lgan izlanuvchilar uchun maxsus moslashtirilgan o'quv materiallari mavjudmi?

❖ Nogironligi bo'lgan ta'lim oluvchilar foydalanishi mumkin bo'lgan maxsus texnik vositalar bilan ta'minlanganlik holati qanday?

❖ Maxsus materiallar va texnik vositalardan foydalanish tartibi, mas'ul bo'linma yoki shaxslar belgilanganmi va bu bo'yicha ichki hujjatlar mavjudmi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ maxsus o'quv materiallari va jihozlar tasdiqlangan ro'yxati (Brayl kitoblari, ko'rgazmali materiallar, maxsus qurilmalar)

26.3. INDIKATOR

Inklyuziv ta'lim uchun AKT, elektron resurslar, dasturiy ta'minotdan foydalanish imkoniyati (audio-video resurslar, Brayl yozuvi alifbosi, subtitrlar va boshqalar) yaratilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Nogironligi bo'lgan tinglovchilar uchun ta'lim jarayonida foydalaniladigan elektron resurslar va AKT vositalari mavjudmi va amalda qo'llanilyaptimi?*

❖ *Masofaviy va elektron ta'lim platformalari inklyuzivlik talablariga moslashtirilganmi?*

❖ *Inklyuziv ta'limni ta'minlash maqsadida maxsus texnik va dasturiy vositalar joriy etilganmi va ular bo'yicha mas'ul shaxslar belgilanganmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *AKT va elektron resurslar (audio-video materiallar, subtitrlar, Brayl alifbosi) ro'yxati va foydalanish tartibi bo'yicha ichki yo'riqnoma*

26.4. INDIKATOR

Imkoniyati cheklangan izlanuvchilar uchun psixologik maslahat xizmatlari faoliyati yo'lga qo'yilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Psixologik maslahat xizmatini ko'rsatuvchi mas'ul bo'linma yoki mutaxassis (psixolog) rasmiy ravishda belgilanganmi?*

❖ *Imkoniyati cheklangan izlanuvchilar psixologik maslahat xizmatidan foydalanishi uchun aniq tartib ishlab chiqilganmi va amalda qo'llanilyaptimi?*

❖ *So'nggi 1–3 yil davomida imkoniyati cheklangan izlanuvchilarga psixologik maslahat xizmatlari ko'rsatilganligini tasdiqlovchi dalillar mavjudmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *psixologik va akademik maslahat xizmatlari faoliyatini tartibga soluvchi hujjat;*

✓ *maslahat xizmatlari ish faoliyatini tasdiqlovchi hisobotlar va statistik ma'lumotlar*

ICHKI BAHOLASH NATIJALARI BO'YICHA XULOSA

Ichki baholash natijalaridan kelib chiqib, ta'lim dasturining davlat ta'lim talablari, maxsus davlat akkreditatsiyasi mezonlari, milliy malaka ramkasi hamda kasbiy standartlarga muvofiqlik darajasi aniq va qisqa ifodalanadi.

Misol uchun: Ta'lim dasturi amaldagi davlat ta'lim talablari va akkreditatsiya mezonlariga asosan umumiy holda muvofiq deb baholandi.

Ta'lim dasturining aniqlangan kuchli jihatlari, jumladan asosiy afzalliklari, ta'lim natijalarining aniqligi va o'lchanishi, mehnat bozoriga yo'naltirilganligi, ish beruvchilar bilan hamkorligi hamda ilmiy rahbar(konsultant)lar salohiyati qisqa va aniq shaklda bayon etiladi.

Aniqlangan kamchiliklar va xavflar ya'ni standartlar yoki indikatorlarga to'liq javob bermaydigan jihatlari, resurslar, kadrlar yoki infratuzilma bilan bog'liq muammolar, tadqiqot natijalari hamda amaliyot o'rtasidagi nomutanosibliklar, shuningdek, bitiruvchilar natijalarida kuzatilgan xavflar ochiq va aniq sabablar bilan ko'rsatiladi.

Manfaatdor tomonlar (izlanuvchilar, ilmiy rahbar (konsultant)lar, ish beruvchilar va bitiruvchilar) fikrlarining umumlashtirilgan natijalari bo'yicha xulosa raqamlar asosida keltiriladi.

Ta'lim dasturini takomillashtirish rejasiga xizmat qiladigan ustuvor yo'nalishlar, muhim chora-tadbirlar hamda qisqa va o'rta muddatli o'zgarishlar aniq belgilanadi.

Ichki baholash natijalari bo'yicha ta'lim tashkilotining rasmiy munosabatini ifodalovchi umumiy xulosa shakllantiriladi. Unda ta'lim dasturini maxsus davlat akkreditatsiyasiga tavsiya etish, kamchiliklar bartaraf etilishi sharti bilan tavsiya etish yoki takomillashtirish zarurati sababli qayta ko'rib chiqish yuzasidan ichki baholash xulosasi bayon etiladi.

Takomillashtirish ishlari uchun mas'ul bo'linmalar, keyingi ichki monitoring muddatlari hamda qayta baholash rejasi qisqacha qayd etiladi.

ILOVA: TA'LIM DASTURI BO'YICHA ICHKI BAHOLASH HISOBOTI SHAKLI

Ichki baholash hisoboti quyidagi ketma-ketlikda shakllantiriladi:

1. Titul varaqasi (*platforma orqali avtomatik shakllanadi*);
2. Mundarija (*platforma orqali avtomatik shakllanadi*);
3. Ichki baholash bo'yicha komissiya a'zolari tarkibi (*keltirilgan **namuna** asosida tasdiqlanadi va platformaga yuklanadi*);
4. Ta'lim tashkiloti to'g'risida umumiy ma'lumot (*keltirilgan **namuna** asosida platforma orqali avtomatik shakllanadi*);
5. Maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkaziladigan ta'lim dasturi to'g'risida ma'lumot (*keltirilgan **namuna** asosida platforma orqali avtomatik shakllanadi*);
6. Ta'lim tashkiloti tuzilmasi (*keltirilgan **namuna** asosida ta'lim tashkiloti tomonidan tasdiqlangan holda platformaga yuklanadi*);
7. Maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishning baholash yo'nalishlari, mezonlari va indikatorlari bo'yicha baholash natijalarini shakllantirishda foydalaniladigan tahliliy ma'lumotlar (*keltirilgan **1-7-jadvallar** to'ldirilgan holda platformaga yuklanadi*).

ta'lim tashkilotining nomi

"TASDIQLAYMAN"

_____ F.I.O.

"__" _____ 2026-y.

"

_____ "

ta'lim dasturini maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish bo'yicha

ICHKI BAHOLASH HISOBOTI

Hudud: _____.

Ichki baholash bo'yicha komissiya a'zolari tarkibi

t/r	F.I.O.	Lavozimi

Ta'lim tashkiloti to'g'risida umumiy ma'lumot

Nomi:	
Tashkil etilgan yili:	
Tashkil etish asosi:	<i>(normativ-huquqiy hujjat, litsenziya yoki boshqalar)</i>
Rasmiy elektron pochtasi:	
Rasmiy veb-sahifasi:	
Rasmiy telefon raqami:	
Manzili (asosiy):	
Manzili (qo'shimcha):	
Davlat akkreditatsiyasi uchun mas'ul shaxs to'g'risida ma'lumot	
F.I.O.:	
Lavozimi:	
Rasmiy elektron pochtasi:	
Rasmiy ish telefon raqami:	

**Maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkaziladigan ta'lim dasturi to'g'risida
ma'lumot**

1.	Ta'lim dasturi kodi va nomi:	
2.	Ilmiy daraja beriladigan fan tarmog'i:	
3.	Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi:	
4.	Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi:	
5.	Hamkorlikda amalga oshirilishi (qo'shma, franshiza yoki boshqalar):	
6.	Ta'lim tili:	
7.	Ta'lim shakli:	
8.	Ta'lim dasturi hajmi (ECTS krediti yoki akademik soatlar miqdori):	
9.	Ta'lim dasturi davomiyligi (yillar/semestrlar):	
10.	Milliy malaka ramkasidagi darajasi:	
11.	Kvalifikatsiya(lar) nomi:	
12.	Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar:	
13.	Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi va uning namunasi:	<i>(tasdiqlangan yuklanadi)</i>
14.	Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori:	
15.	Ta'lim dasturini o'qitish manzili:	
16.	Kasbiy standart/malaka talabi (agar mavjud bo'lsa):	<i>(tasdiqlangan yuklanadi)</i>
17.	O'quv reja (agar mavjud bo'lsa):	<i>(tasdiqlangan yuklanadi)</i>
18.	Fan (modul) dasturlari (agar mavjud bo'lsa):	<i>(tasdiqlangan yuklanadi)</i>

Ta'lim tashkiloti tuzilmasi

Ta'lim tashkilotining tashkiliy tuzilmasi, bo'linmalari, kafedralari va boshqa tuzilmaviy tarkiblari ko'rsatiladi. Ta'lim tashkiloti filial yoki boshqa tarkibiy yuridik (yuridik bo'lmagan) tarkibiy tuzilmalari ham ko'rsatiladi.

Izlanuvchilar kontingenti to'g'risida ma'lumot*

t/r	Ixtisosliklar		Izlanuvchilar soni						
	shifri	nomi	1-bosqich		2-bosqich		3-bosqich		Jami
			Tayanch	Must.izl.	Tayanch	Must.izl.	Tayanch	Must.izl.	
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
Tayanch doktorantura									
1									
2									
...									
	Jami								
Doktorantura									
1									
2									
...									
	Jami								
	Hammasi								

Izoh: *Yangi tashkil etilgan ta'lim tashkilotlari uchun ushbu jadval to'ldirilmaydi.

Qabul parametrlarini shakllantirishda tegishli ixtisosliklar bo'yicha tadqiqotlar olib borayotgan fan nomzodlari, falsafa doktorlari (PhD) va fan doktorlari salohiyati tahlil

[illegible]

4-jadval

**Ilmiy rahbar (konsultant)larning ilmiy rahbar(konsultant)lik bo'yicha mos
ixtisoslik va unvonlarga egaligini tasdiqlovchi jadval**

Ixtisoslik yo'nalishi	Ilmiy rahbar F.I.Sh.	Ilmiy darajasi (PhD/DSc/Fan nomzodi)	Ilmiy unvoni (dotsent/professor)	Mutaxassislik shifri	Rahbarlik qilayotgan tadqiqot yo'nalishi	Rahbarlik qilayotgan doktorantlar soni	Izoh
1							
2							
3							
...							

Ixtisosliklar bo'yicha ilmiy adabiyotlar bazasi ta'minoti to'g'risida ma'lumot

[illegible]

**Ta'lim tashkilotining xalqaro indeksatsiyalangan ma'lumotlar bazalariga obunasi
to'g'risida ma'lumot**

№	Ixtisoslik nomi	Indeksatsiyalangan ma'lumotlar bazasi nomi	Obuna turi (to'liq/qisman)	Asos
1				
2				
3				
...				

**Ilmiy-eksperimental laboratoriyalar va asbob-uskunalar ta'minoti to'g'risida
ma'lumot**

№	Ixtisoslik nomi	Laboratoriya nomi	Asbob- uskunalar ro'yxati	Asbob- uskunalar soni	Foydalanish darajasi (doktorant/ilmiy tadqiqotlar bo'yicha)	Izoh
1						
2						
3						
...						

TA'LIM DASTURINI TAKOMILLASHTIRISH BO'YICHA CHORA-TADBIRLAR REJASI

[illegible]

This image shows a full page of blank, lined paper. It features approximately 28 horizontal black lines spaced evenly across the page, typical of notebook paper. The lines are thin and extend from the left edge to the right edge. There are no margins, text, or other markings on the page.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI

**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**

Murojaat uchun

- +998 55 505 30 30
- www.nqaae.uz
- info@nqaae.uz
- 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani,
Universitet ko'chasi, 7-uy.